

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNVERSITETI
MAGISTRATURA BO’LIMI

Qo‘lyozma huquqida

UDK: _____

XOLIYOROVA AZIZA ALIXON QIZI

OLAMNI FALSAFIY IDROK ETISH VA BADIY TAFAKKUR
DIALEKTIKASI (ABDULLA ORIPOV IJODI MISOLIDA)

70230502-Adabiyotshunoslik: (o‘zbek adabiyoti) mutaxassisligi bo‘yicha

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

f.f.n.dotsent Yuldoshev N.T.

Termiz - 2024

**Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining
2022-yil 24-yanvardagi 2-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.**

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi:



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____ f.f.n.dotsent N.Yuldoshev

Kafedra mudiri: _____ PhD. A.Arslonov

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____ PhD. D.Abduraximov

MUNDARIJA:

KIRISH

I BOB. OLAMNI IDROK ETISH VA BADIY TAFAKKUR

1.1-&. Olamning yaratilishi va tuzilishi badiiy tafakkur misolida

1.2-&. Tarixiy muhit va ijodkor shaxs dunyoqarashining shakllanishi

Bob bo`yicha xulosalar

II BOB. TARIXIY-IJTIMOYIY KONTEKST, IJODKOR SHAXSI VA JAMIYAT MUNOSABATLARI.

2.1-&. Abdulla Oripov she`riyatida borliq va insoniy muammolar talqini

2.2-&. Ijodkor she`rlarida jamiyatga bog`liq munosabatlar tahlili

Bob bo`yicha xulosalar

III BOB. ABDULLA ORIPOV BADIY TAFAKKURI VA IJODIY YUKSALISH KATEGORIYASI.

3.1-&. Shoir she`riyatida ijodiy yuksalish tadriji

3.2-&. Kichik lirik janrlardagi falsafiy fikrlar dialektikasi

Bob bo`yicha xulosalar

UMUMIY XULOSA

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

KIRISH

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusining asoslanishi va dolzarbligi:

O`zbek va jahon adabiyotshunosligida olamni idrok etish, uni badiiy qayta voqealantirish, ilmiy-nazariy jihatdan o`rganish va bu boradagi qarashlarni umumlashtirishga hamisha asosiy masala sifatida qaralgan. Badiiy ijodda bu uzun yo`l o`z manzillarini topadi. Chunki haqiqiy badiiy ijod muayyan xalqning ibtidoiy tasavvurlaridan boshlab uning tarixiy-ijtimoiy taraqqiyotini, milliy koloritini, xalqning asriy orzularini, eng og`riqli nuqtalarini, tarixiy-ijtimoiy muhitni, dunyoqarashlarini, borliqqa munosabatini o`z yuragida sintez qilib qayta ishlaydi. Xuddi, Ozod Sharafiddinovning “Zamon, qalb, poeziya” asari kabi qalb tarozidek o`rtada bo`ladi. Zamondagi voqea hodisalar, qalb sintezidan o`tib, poeziyada o`z aksini topadi. Ijodkor shaxsining iste`dodi, shaxsiy hayot tajribasi, falsafiy dunyoqarashi bu jarayonda juda muhimdir. A. Oripov ijodi nafaqat o`zbek adabiyotida, balki jahon badiiy tafakkuri tarixida ham o`ziga xos, noyob xazinalardan biridir. Har qaysi janrda ijod qilmasin har birida o`zbek xalqining turli tarixiy muhitlaridagi hayoti, yuragining qo`rida saqlab kelgan orzulari, toshlarni ham yig`latgan armonlarini, bulutga ham, quyoshga ham qomatini tik tutgan tog`dek bardoshini ifoda etadi. Ishonch bilan aytish mumkunki, u lirik, dramatik va liro-epik janrlarida o`zbek xalqining XX asrdagi hayotining badiiy, yaxlit kompozitsiyasini yaratdi. Shoirning turli qalb evrilishlariga sababchi bo`luvchi, insonni o`ylashga, fikrlarga undovchi falsafiy ijodi ko`plab ilmiy tadqiqotlar uchun asosiy material bo`lib xizmat qila oladi.

Adabiyotshunoslikda inson va uning ruhiyatini o`rganib, borliqni anglash asosiy vazifalardan biridir. Shu asosda adabiy shakllanishning ijtimoiy, siyosiy va adabiy estetik omillari, takomillashuv bosqichlari, ijodkorlarning biografiyasining talqini, mavzu qamrovini, janr xususiyatlarini o`rganish, tadqiq etish asosiy vazifalar sirasiga kiradi. Antik yunon falsafalaridan boshlab idealizm, meteriolizm, fundamental antalogiya singari konsepsiyalarning hamhiyatida borliqni anglashga bo`lgan o`ziga xos yondashuvlar bor. O`zbek adabiyotshunosligida Abdulla Oripov

ijodining borliq, uning yaratuvchisi tabiat va inson, umr, uning mazmuni, zamon hamda makon, olamning siri, vaqt, dunyo va uning mohiyatini anglash jarayoni kabi bir qator qirralari hali to`liq ochib berilmagan. Shuning uchun Abdulla Oripovning ijodida his-tuyg`ular va ularning falsafiy ildizlarini tahlil qilish va o`rganish maqsadga muvofiq. O`zbekiston Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev takidlab aytganidek; "...adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor-bu avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga aslo haqqimiz yo`q". Binobarin, ushbu fikrlar mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Shunga ko`ra, mazkur tadqiqot O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli "O`zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo`yicha harakatlar strategiyasi to`g`risida"gi Farmoni 2017 yil 13 sentabrdagi PQ-3271-sonli "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ`ib qilish bo`yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to`g`risida"gi Qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning obekti va predmeti. Magistrlik ishi uchun Abdulla Oripovning she`rlari obyekt sifatida olingan. Tadqiqotning predmeti sifatida shoir she`rlarining g`oyaviy-badiiy tadriji, shoirning badiiy tafakkuri, o`ziga xos uslubi, falsafiy, ijtimoiy-psixologik xususiyatlari olindi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Abdulla Oripovning olamni falsafiy idrok etish, inson va insoniy muammolar hamda ularni badiiy qayta gavdalantirish konsepsiyasini darajama-daraja o`rganish, ijtimoiy muhitni va bu muhitga ijodkorning munosabatlari dialektikasini o`rganishdan iborat. Shundan kelib chiqib ishning vazifalari quyidagicha:

-ijodkor shaxs dunyoqarashiga tarixiy muhitning ta`sirini o`rganish;

-shoirning ijodi bosqichlarini davr nuqtayi nazaridan darajalarga bo`lish hamda ularni tahlil qilish;

-falsafaning asosiy masalasi bo`lgan olamning yaratilishi, uning tuzilishi, unda insonning o`rni singari muammolarni Abdulla Oripov ijodi asosida kuzatish

-shoir she`riyati misolida dunyoni falsafiy anglash, bu falsafalarni kashf etish

-badiiy tasvir poetikasi misolida Abdulla Oripov she`rlarining janr xususiyatlarini o`rganish

-borliq va uni badiiy qayta gavdalantirishning tasviriy-vositaviy usullarini tahlil qilish

Ilmiy yangiligi. Ijodkorning badiiy tafakkuri, zamon va makon munosabatlarida, tarixiy-ijtimoiy muhitda, inson shaxsiyati va ruhiyati rivojlanishida asosiy manba ekanligini Abdulla Oripov ijodi misolida tadqiq etilishi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Ushbu magistrlik dissertatsiyasi tadqiqot natijalariga ko`ra, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga tadqiq etilishi, nazariy jihatdan yondashuv va qarashlarni shakllantirishda, aforizmlar, hikmatli so`zlar jamlangan bayozlarda, bundan tashqari ilmiy, badiiy asarlarda foydalanish uchun qo`llanishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo`yicha adabiyotlar tahlili. Abdulla Oripovning turli yillarda chop etilgan asarlari jumladan, 8-jildlik “Tanlangan asarlar”, “Yillar armoni”, “Talosh pallasi”, “Shoir yuragi”, “Yuzma-yuz”, “Yurtim shamoli” kabi she`riy kitoblari asosiy manba sifatida olingan. Bundan tashqari matbuotda e`lon qilingan maqolalar, dissertatsiya va bir qator ilmiy asarlarga murojaat qilindi.

Tadqiqotda qo`llanilgan metodikaning tavsifi. Tadqiqot ishida Parmenid va boshqa falsafa olimlarining qarashlariga tayanildi; M. Qo`shjonov, Q. Yo`ldoshev, I. G`aniyev, N. Afoqova, N. Jabborov, S. Rayimova, A. Davlatova va boshqa adabiyotshunos olimlarning hamda Phd M. Rayxonovning ilmiy yondashuvlariga asoslanildi. Tadqiqotda psixologik, qiyosiy-tahlil, hermenevtik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot ishining ilmiy-amaliy ahamiyati quyidagicha:

- Tadqiqotda keltirilgan nazariy xulosalar muayyan shoir yoki yozuvchi asarlarini tarixiy –ijtimoiy muhit kontekstida ilmiy tadqiq qilish uchun yo`nalish beradi.
- Chiqarilgan xulosalar o`zbek adabiyotshunosligi fanining taraqqiyoti tamoyillarini belgilashda, uning o`ziga xos nazariy yo`nalishini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.
- Tadqiqotda keltirilgan dalillar va nazariy fikr-mulohazalardan o`quv qo`llanmalar va dasturlar tuzishda, filologiya fanlariga oid dars mashg`ulotlarida, Abdulla Oripov ijodiga oid ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Magistrlik dissertatsiyasiga kirish, 3 asosiy bob, 6 paragraf, bob bo`yicha xulosalar hamda yakuniy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi betni tashkil etadi.

I BOB. OLAMNI IDROK ETISH VA BADIY TAFAKKUR

1.1&. Olamning yaratilishi va tuzilishi badiiy tafakkur misolida

Falsafaning asosiy masalalaridan biri bu – borliq va inson munosabatlaridir. Falsafa tarixida bu xususda ko`plab ontologik konsepsiyalar vujudga kelgan.

Borliq tushunchasini fanga yunon olimi Parmenid¹ kiritgan. Eng qadimgi yunon falsafasidan boshlab idealizm, materializm, eksistensializm, fundamental ontologiya kabi konsepsiyalarning barchasida borliqqa nisbatan o`z yondoshuvlari mavjud. Falsafada bu konsepsiyalar mohiyatiga ko`ra ikki turga bo`linadi:

1. Borliq bizning ixtiyorimizdan tashqarida, obyektiv ravishda mavjud
2. Borliq mavjudligi ong bilan bog`lanadi.

Dunyoqarash- inson o`zini va atrofini o`rab turgan olamni tushunishdagi tasavvurlari va bilimlari yig`indisidir.

Ijodkor shaxsining dunyoqarashi, borliq, inson, hayot haqidagi qarashlari adabiyotda muhim ahamiyatga egadir. Ammo har ijodkorning falsafiy qarashlari, borliqqa, muayyan jarayonga yoki predmetga bo`lgan fikrlari aniq, ravshan ifoda etilmaydi. Bu falsafa ijodkor asari ich-ichiga singib ketadi. Hamda aksariyat hollarda yashirin ko`rinishda bo`ladi. Bu jarayon she`riy asarlarda yana ham murakkabroq ko`rinishda bo`ladi.

Har bir ijodkorning falsafiy nuqtayi nazarida olam, jamiyat, inson, umr mazmuniga oid falsafalar sistema sifatida shakllanmaydi. Haqiqiy ijodkorlardagina bu sistema sifatida shakllangan bo`ladi. Tarix, bugun, kelajak, insoniyat iztirobi, inqirozi, baxti uchun bu ijod ko`zgu bo`la oladi. Mifologik-diniy va falsafiy sistemaviylik, faqat qalami o`tkir, mutafakkir ijodkorlargagina xosdir. Faqat shunday ijodda insoniyat hayotiga oid global voqealar va umuminsoniy go`yalar aks etadi. Sodaroq qilib aytadigan bo`lsam, sevgi haqida millionlab she`rlar bor. Ammo bu yagona: "Yorilmagan

¹ <https://biblioclub.ru/index.php?page>

yaraday sevgi” Bu jarayonda ijodkor faqat asar yozadigan ijodkorgina bo`lmay, balki o`z so`ziga, xalqning, insoniyatning yuragini his qiladigan, uning ovozi eshita oladigan, jamiyat rivojlanishida o`z konsepsiyasi va dunyoqarashi mavjud bo`lgan, tarix yo`llarida o`z iziga ega mutafakkir sifatida maydonga chiqadi.

“Global voqeliklar, umubashariy g`oyalar” –bu tushunchalarga ham shunchaki oddiy ko`z bilan qaramaslik kerak. Iste`dodli ijodkor o`zi yashayotgan kichkina dalani tasvirlasa ham yoki bir qarashda ahamiyatsiz bo`lgan bir jarayonni tasvirlasa ham uning zamirida buyuk haqiqatlar bo`ladi. Hamda bu haqiqatlar dunyo uchun, insoniyat uchun birdek taalluqlidir. Bu narsalar orqali umuminsoniyat hayotini, tarixini va istiqboliga oid eng muhim g`oyalarni, qadriyatlarni umumjahon e`tiboriga olib chiqishi mumkin. Masalan Tolstoy “Urush va tinchlik” romanida insoniyat tarixidagi ma`lum vaqtni badiiy qayta ishladi. Voqealar Rossiya atrofida, rus xalqi dunyoqarashi bilan kechadi. Ammo bu asar faqat ruslar uchun emas, butun insoniyat uchun birdek ahamiyatli va qadrlidir. Adib ayni shu voqealar orqali butun dunyoning urush va tinchlikka oid qarashlarini, nuqtai nazarini umumlashtiradi. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” asari oddiy bir qishloqda, poyezd stansiyasida kechadi. Ammo asardagi axloqiy, ijtimoiy, estetik g`oyalar Tolstoynikidan aslo kam emas. Bu asar ham butun insoniyat uchun birdek qadrlidir. Bir kun, ammo asrlarga teng bo`lgan kun haqidadir. Tolstoy ham Chingiz Aytmatov ham voqealarni o`z uslubida, o`z yo`nalishida ochib bergan. Ammo ikkisi ham qadrlidir va birdek ahamiyatli. Qisqacha qilib aytganda, badiiy adabiyotda natijani voqeliklar kechadigan makon, vaqt yoki voqealar ko`lami emas, ijodkor shaxsining mahorati hal qiladi.

Abdulla Oripov ham borliq va insonni donishmandlarga xos idrok etgan hamda noyob badiiy obrazlarda ko`rsatib bera olgan ijodkor. Shoirning ijodida ratsionalizm va irratsionalizm, his-tuyg`ular, fikrlar, ruhiyat bir-biri bilan eng mukammal darajada uyg`undir. Haqiqiy ijodkor va mutafakkir sifatida shoirning fikrlari, o`tkir nigohi, olam va insonni yaxlid ko`rinishda qamrab olgan.

Abdulla Oripovning asarlarini butun bir sistema sifatida tasavvur qiladigan bo`lsak, ijodkor uchun borliq makon va lomakondan hamda ikki dunyodan iboratdir. Ijodkorning dunyoqarashiga o`sha davrdagi mafkura yani dialektik materializmning ta`siri kuchli bo`lgan. Phd Rayxonova Muhayyoning ilmiy dissertatsiyasida bu haqida shunday deyilgan: "Onam vafotiga" she`rida "Makonda lomakonsan..." degan jumlaning yozishga jur`at etganda shoir 25 yoshda ,ateistik mafkura bayroqdori bo`lgan kommunistik jamiyat fuqarosi edi. Birgina arabcha so`z, islomiy tasavvufiy termin bo`lgan "lomakon"ni she`ri matniga olib kirish uchun nafaqat jasorat va jur`at, balki chin e`tiqod , hukmron mafkura rad etib turgan dinga astoydil inon-ishonch ham bo`lishi lozim edi..."²

Abdulla Oripov ijodida mustaqillikkacha bo`lgan davrlarda ham teologiyaga oid so`zlarni juda ko`p uchratishimiz mumkin. Masalan; Alloh, Qur`on, jannat, fano musallo, nabi, Rasul, lomakon kabi. Shoir ijodida takrorlanmaslik bor. Buni yuqoridagi so`zlar misolida ham ko`rishimiz mumkin. Bundan tashqari bu so`zlar she`r ichida turli holat va darajalarni anglatgan. Bu ham shoirning mahoratini ko`rsatadi.

Men shoirman,

Istasangiz shu,

O`zimniki erur shu sozim

Birovlardan olmadim tuyg`u

O`zgaga ham bermam ovozim.

Darhaqiqat shoirning hech kimga o`xshamas ovozi va sozi bor edi. Abdulla Oripov o`zi kichik bo`lsada ammo juda ulkan yurak va turfa samimiy tuyg`ular bilan she`riyatga kirib keldi. Uning she`rlarida hukmron mafkuraga bo`ysunmas, o`z tuyg`ulari bor edi. Abdulla Oripov o`sha vaqtlarda ham insonning

² Rayxonova M. Abdulla Oripov she`riyatida olamni idrok etish va badiiy voqelantirish tadriji. - Filol. fanlari bo`yicha falsafa doktori. diss. - Qarshi, 2021. - 20 b

qismatini, uning mohiyatini teran angladi, qismat va olamning yaratuvchisi odam emasligini idrok etgan holda buni she`rlarida ham baralla ayta oldi.

Har bir ijodkorning o`z fikrlar dunyosi, o`z so`zlaridan iborat lug`ati bo`ladi. Fikrlar dunyosidagi fikrlar qog`ozga ko`char ekan bunda lug`atlar harakatga keladi. Chunki ijod psixologiyasi shunday jarayonki, unda hech narsa yanglish bo`lmaydi. So`zning asar ruhiyatiga butkul singib ketishi uchun bu so`z avvalo ijodkor ruhiyatiga singan bo`lishi kerak. Shundagina bu so`z asardan muqim o`rin egallaydi. Abdulla Oripovning o`zi ham so`z xususida mohir zargar bo`lgan. “Ona sayyora” she`ridagi “bezovta” so`zini olti oy qidirganini shoirning o`zi bir suhbatda aytgan. Bir do`stining nega bezovtasan degan so`zidan quvonib ketgan va o`ziga kerakli so`zni topgan edi. Ba`zan kerakli so`zni topish va o`rniga qo`yish juda ham qiyin.

Goho xayol daryosida jim

O`tkazaman tunlarni bedor

Ba`zan g`aloz jumla ustida

Soatlab bosh qotirganim bor.³

“Uchqun” nomli ushbu she`r shu jumlar bilan boshlanadi. She`r 1957-yilda yozilgan. Abdulla Oripov she`riyatga endi kirgan davrlarda ham uning o`z yo`li va maqsadi bo`lgan. Hali yosh bo`lishiga qaramasdan yelkasidagi og`ir yukni his qila olgan edi.

Hali bunga ko`p gap bor hali-

Fikrlarim tarqoq tuyg`usiz

Hali qancha tunlarni yana

O`tkazishim kerak uyqusiz...⁴

³ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1984.-23 b

⁴ O`sha manba. -23 b

Ammo u buyuk maqsadlariga erishishni va buning uchun ko`p mashaqqatlarni kechishi kerakligini bilgan holda o`zini uchqunga qiyoslaydi.

Achinmayman,sizga o`ylarim,

Achinmayman.sizga uzun tun.

Achinmayman, chunki otashga,-

Oq yo`l berar odatda,uchqun!⁵

Shoirning dastlabki she`rlaridayoq olamga oid falsafiy qarashlari aks etib borgan. Buni 1957-yillarda yozilgan ushbu she`rlardan bilishimiz mumkin: “Uchun”, “Qushcha”, “Yulduzlar”, “Tog`lar”, “Cho`pon”, “Kapalak va men”. Mavzu doirasida e`tibor bersak, bu she`rlar dastlab tabiat, borliq haqida. Ammo o`sha she`rlardayoq falsafiy fikrlar uchquni boshlangan edi. Dastlab tabiatni, baxt va shodlikni tasvirlash bilan boshlangan fikrlar 1962-yillarga kelganda biroz jiddiy tus oladi. Endi olam haqidagi fikrlar ham yanada oydinlashadi. Ushbu yillarda yozilgan she`rlar: “Kuz xayollari”, “Darband daryosi”, “Qo`l”, “Odamlar”, “Eslash”, “Onamga xat”, “Buloq”, “Giyoh”. Shu o`rinda shuni aytish ham muhimki vaqt o`tgan sari ijodkor dunyoqarashi kengayib, mavzular ham rang-baranglashib borgan. Ushbu she`rlarda o`zini anglash asosiy o`ringa chiqadi. Yuqorida ko`rgan “Uchqun” she`rida ijodkor oldidagi mashaqqatli yo`l va buning uchun yonish, olov bo`lish haqida aytib o`zidagi tuyg`ularni uchqunga o`xshatgan bo`lsa, keying she`rlarida o`zini va borliqni angash ancha teranlashadi. Buni ushbu yillarda yozilgan “Buloq” va “Giyoh” she`rlarida ham ko`rishimiz mumkin.

Qutlug` bir saharda ko`z ochdi buloq,

Yo`l soldi daryolar sari adashib

Unga rahm etmoqchi odamlar shu chog`

Tog`u toshlar aro yaqin yo`l ochib

⁵ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent: Adabiyot va san`at nashriyoti, 1984.-23 b

Odamlar tegmangiz mayli toshsin u

Mayliga tog`ni ham ko`rsin yo`lida,

Qo`ying o`z yo`lini o`zi ochsin u

Zavqlanolsin u ham kurash so`ngida.⁶

Ushbu she`rda buloq kim? Shoir bu she`r orqai nima demoqchi? Bu she`rni yozganda shoir 22 yoshda edi. Kengliklarda ko`z ochgan va o`z yo`lini izlab ketayotgan bu buloq shoirning aynan o`zi edi.

Ulug`vor bir qudrat bilan

Chayqaladi cho`ng dengiz

Qancha og`ir xarsang toshlar

Tubda unga cho`kkan tiz.

Ammo mo`jaz, nozik giyoh

O`sha tubsiz o`lkada

Ko`kka o`sar, ha, dengizni

Ko`targancha yelkada!⁷

Ushbu yillardan boshlab shoir o`z falsafasini kengaytirib boshladi. She`rda birgina giyohning butun dengizlarni ko`tarib o`sishi tasvirlangan. Giyoh orqali o`zini ko`rsatgan shoir, yelkasidagi yukni anglab yetgan. Endi u butun millat va xalq dardi bilan bedor bo`lgan bir inson sifatida ko`z oldimizda gavdalanadi.

Abdulla Oripov ijodidaga millat dardi, xalqning orzu-umidlari, armonlari, uning taqdiri, insoniyat umri, hayot falsafasi, ruhiy evrilish iztiroblari singib ketgandir.

⁶ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:Adabiyot va san`at nashriyoti,1984.-52 b

⁷ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:Adabiyot va san`at nashriyoti,1984.-53 b

Shoirning o`zi bir qator she`rlarida boshidan o`tgan voqealar haqida maqola va intervyularida aytib o`tgan. (“Kulma,kulma...”, “Yuzma-yuz”, “Temir odam”, “Avlodlarga maktub”, “Birinchi muhabbatim”, Minorayi Kalon tepasidagi laylak”, “Olomonga”, “Arslon chorlaganda”). Shoirni butun insoniyat muammolari, iztiroblari tashvishga soladi. Bu falsafiy qarashlari 1966-yillarda yozilgan “Avlodlarga maktub” she`rida ham o`z aksini topgan. She`r 1966-yili bo`lgan zilzila munosabati bilan yozilgan bo`lib unda jamiyatdagi soxtaliklar, yolg`onlarga qarshi norozi kayfiyat sezilib turadi.

Bu cheksiz olamning ichu toshida

Nima bor? Ilg`armi odamzod ko`zi.

Kim ko`krak kerardi dunyo qoshida

Uni yaratmagan bo`lsa gar o`zi...⁸

Abdulla Oripov ushbu she`r orqali insoniyat yashayotgan zamin, cheksiz koinotda qum zarrasidek kichik ekanligi, inson tasavvuri borliqni butkul anglay olmasligini va bu poyonsiz koinotda tabiiy ofatlar oldida ojiz ekanligini e`tirof etadi.

Odamzod xayoli yetmagan falak

Gar inson boshida aylantirsa tosh,

Iloj yo`q insonda bardoshdan bo`lak,

Jasorat atalmas ilojsiz bardosh.

Do`stlarim, hayratda qolmangiz faqat

Sirlilik bizlarning she`rlarga mosdir

Dunyo qarshisida ojiz jasorat

⁸ Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2000. -101 b

Inson bolasiga hamisha xosdir.⁹

Ijodkorning she`r orqali hukmron mafkura va jamiyatning soxtaliklarini, yolg`onlarini fosh etmoqda. Lekin shu bilan birga olam, cheksiz borliq, koinot, undagi har bir tirik jonning o`rni, inson, hamda bu borliqning Yaratuvchisi borligi, bemisl kashfiyotlar egasi bo`lmish insonning qismati Yaratganning izmida ekanligiga oid qarashlari yuzaga chiqqan. Abdulla Oripov ijodida Alloh turli nomlarda keltirilgan. Phd Rayxonova Muhayyoning dissertatsiyasida ular sanab o`tilgan: "Abdulla Oripov she`rlarida Yaratuvchi falak, ilohiy qudrat, soqov daho, bepoyon xilqat, dono tabiat, buyuk hakim, muallif, Xudo, Alloh, Sen, U kabi turli nomlar bilan ataladi"¹⁰. Abdulla Oripov she`rlarida xalqona bir ohang bor. Uning ona, vatan, muhabbat, hijron, bahor kabi she`rlaridan tortib, o`z davridagi fikr tutunligi, ruhiy iztiroblar, erksizlikka qarshi milliy birlik, ozodlik va kurashga chorlagan she`rlarigacha deyarli hammasi xalqimiz yurak-yuragidan joy olgandir.

Abdulla Oripov juda ko`p she`rlarida inson va borliq haqida mulohaza yuritadi. 1964-yilda yozilgan "Asrimiz odami" she`ri ham bunga misol bo`la oladi.

Mening ko`z o`ngimda jonlanar tarix

G`amlardan to`qilgan shu ko`hna olam.

Asrlar birma-bir o`tar va axir

Yuksalar qarshimda eng baxtli odam...

Odamlar o`tdilar bir vaqt, bir zamon

Ha, yashab o`tdilar endichi mana:

O`zi bandi bo`lgan olam ustidan

⁹ Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild. - Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2000. - 101 b

¹⁰ Rayxonova M. Abdulla Oripov she`riyatida olamni idrok etish va badiiy voqelantirish tadriji. - Filol. fanlari bo`yicha falsafa doktori. diss. - Qarshi, 2021. - 24 b

Hokim bo`lmoqni u istar yagona ¹¹

Bu kabi fikrlar ijodkor dunyoqarashidagi murakkab ziddiyatlarni ko`rsatadi. Negaki shoir yashagan o`sha davrda hukmron mafkuraning haqiqatlari shoirning o`z haqiqatlariga aslo mos kelmas edi. Uning tuyg`ulari, yuragi atrofida bu hayqiriqli ovozni butkul rad qilar, ammo buning uchun yetarlicha kuch kerak edi. Shuning uchun ham she`rdagi ziddiyatli, isyonli satrlar ushbu tuyg`ularning aks-sadosi sifatida yuzaga chiqqan edi. Abdulla Oripovning shu ko`rinishdagi his-tuyg`ulari aks etgan she`rlari ko`pdir.

Javob olabildi hech kim ham zotan:

Na sulton, na gado, na shoh, na faqir

Kim qancha quvmasin sening ortingdan

Bir uyum tuproqni ko`rsatding axir ¹²

Abdulla Oripov badiiy-falsafiy dunyoqarashida borliq bir-biriga uyg`un, bir-birini talab etadigan intizomdan iborat sistema sifatida eng oliy tuzilma ekanligini, hamda ayni vaqtda oxirigacha anglab bo`lmaydigan jarayonligini o`z konsepsiyalarida isbotlagan. Masalan shoirning “Uyg`unlik” she`rida bo`shliq degan tushuncha yo`qligi, makonni nimadir to`ldirib turishini aytadi. Shu bilan birga suvsiz idish ichida ham zangorin havo, qorong`u koinot qa`rida esa vaqt va jisimsiz ruhlar borligini yozib fikrlarini isbotlaydi.

Olamning yaratilishi va tuzilishi murakkab jarayondir. Bu jarayonni har bir olim, faylasuf, shoir va yozuvchi o`z dunyoqarashi va bilimlaridan kelib chiqib talqin qiladi. Ammo insoniyat uchun bu tushunchalarni anglashning badiiy adabiyotdan boshqa go`zalroq turi bo`lmasa kerak. Chunki yurakda tug`ilgan, tuyg`ular ichida yashagan asar, hamisha manzilini ham yurakdan topadi.

¹¹ Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2000. - 49 b

¹² Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2000. - 49 b

1.2-&. Tarixiy muhit va ijodkor shaxs dunyoqarashining shakllanishi

Dunyoda har bir mavjudodning o`z tug`lish vaqti, yashash sharoiti hamda o`z makoni bo`ladi. Masalan kapalak gul-u gulzorda, chumoli tuproqda, baliq suvda tug`ilgani kabi. Ularning makoni ham bir-biridan farqli. Ijodkor shaxsi ham har qanday inson kabi muayyan zamon-u makonda tug`uladi. Dunyoqarashi o`sha muhitda shakllanadi, rivoj topadi. Ijodkor yaratgan asarlar aniq ijtimoiy-tarixiy kontekst bilan qattiq bog`langan bo`ladi. Ammo shunday ijodkorlar borki, ularni davr emas, ular davrni yaratadi. Juda ko`p olimlarning xulosalariga ko`ra Abdulla Oripov o`z davrini yaratgan ijodkorlardandir. Adabiyotshunoslik mana shu holni doim kuzatib, olimlar esa bu jarayonni o`z ilmiy asarlarida izohlab kelishadi. Yozuvchi yoki shoirning o`z asarlarida ilgari surgan g`oyalari, o`zi yashayotgan jamiyat qonun-qoidalariga mos va ayni vaqtda buning butunlay aksi bo`lishi ham mumkin. Shoir ijodidagi mana shu ziddiyatlarda biz aslida ijodkorni kashf qilamiz. Chinakam shoirlikni, adabiyotni o`ziga qismat deb biluvchi ijodkorlar dunyoni oddiy insonga qaraganda ancha boshqacha ranglarda ko`radi. “Ismsiz tuyg`ularda” his qiladi. Shu nuqtayi nazardan, asarlari dissertatsiyam obyekti bo`lgan Abdulla Oripov ijodi ham murakkab badiiy va eng nozik estetik hodisa sifatida ko`zga tashlanadi.

“Agar Abdulla Oripovning ijodiy faoliyatini oltmish yilning nari-berisida deb oladigan bo`lsak, uning yarmidan ko`prog`i sho`ro davrida, qolgani esa mustaqillik yillarida kechdi. Mutafakkir shoir ijodidagi murakkablik, aytish mumkinki, mazmun-mohiyatiga ko`ra bir-biriga zid bo`lgan ana shu ikki tarixiy davr bilan bog`liq”¹³. Bu ikki davrni ikki bosqichga bo`lib o`rganamiz:

1. Sho`ro davri. XX asrning 60-yillaridan 1991 yilgacha.
2. Mustaqillik davri. 1991-2016 yillar

Men ushbu dissertatsiyamda shoirning asosan mustaqillikkacha bo`lgan davrdagi she`rlarini dissertatsiyamning obekti sifatida tanladim.

¹³ Rayxonova M. Abdulla Oripov she`riyatida olamni idrok etish va badiiy voqelantirish tadriji: Filol. fanlari bo`yicha falsafa doktori..diss.- Qarshi, 2021.-13 b

Shoir bolaligini eslab quyidagilarni yozgan edi:” Bir kunda ikki mahal suvga chiqardik, ayniqsa, saraton kunlari Eshonquduqqa qatnash juda zerikarli bo`lardi. Yuragim siqilib ketganidan bir nimalarni ming`ir-ming`ir qilib o`zimni ovutardim, shekilli”¹⁴. Shoirning o`zi aytgan kamtarona “ming`ir-ming`irlari” keyingi yuksak ijodiga kichkina qadam desak yangilishmaymiz. Menimcha, shoirning bolaligidanoq o`tkir nigohiga u yashagan oila muhiti ham ancha ta`sir qilgan. Abdulla Oripovning akalari adabiyot fakultetida o`qishgan. Oilasida nodir kitoblar va jahon adabiyot namunalari iborat kattagina kutubxona mavjud bo`lgan. Bundan tashqari oilaviy davralarda yig`iladigan mehmonlar ham adabiyotga alaqador insonlar bo`lishgan. Shunday davralarning birida Abdulla Oripov “Kreml devorlari” nomli mashq she`ri uchun mehmonlarning biridan yaxshigina nasihat eshitgan edi. Unga shunday nasihat qilingan edi:”bundan keyin ko`rmagan narsang haqida yozma”. Bu tanbeh shoir uchun butun umrga tatigulik saboq edi. “Endi birinchi she`rlar yoza boshlaganimga nima turtki bo`lganini aniq bilmayman. Har holda so`zlarni qofiyalashga ishqiboz bo`lib qolganim esimda. Balki zerikkanimdan, balki zavqim toshib, nimanidir yozgim kelaverardi. Fikr esa yo`q. Yozmaslikning ham iloji yo`q”¹⁵ Yozishga fikr yo`q, ammo, yozmaslikning ham imkoni yo`q. Shoirga berilgan iste`dod uchqunlarini mana shu parchada ko`rishimiz mumkin. O`sha vaqtlardayoq shoirning yurak-yuragida ilohiy iste`dod buloq kabi ko`z ochgan edi. Abdulla Oripov ijodining dastlabki davrlaridayoq inson va hayotga oid haqiqatlarni tabiatdan axtardi. Tabiatda ilhomning turfa ranglarini ko`ra boshladi. Shuning uchun ham Abdulla Oripovning dastlabki she`rlarida ko`pincha bitta yoki bir-biriga juda yaqin obrazlar gavdalanadi. Hamda bu she`rlar ijtimoiylikdan holi yurakning eng samimiy tuyg`ulari kabi sodda. “Uchqun”, “Yulduzlar”, “Qushcha”, “Kapalak va men”, “Tog`lar”, “Bahor” kabi she`rlar shular jumlasidandir.

¹⁴ Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2000. - 7 b

¹⁵ Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2000. - 8 b

Abdulla Oripov ijodini kuzatar ekanmiz, uning fikrlari shiddat bilan o`sganligi 20 yoshlarida yozgan she`rlarida yaqqol ko`zga tashlanadi. Bu davrga kelib ijodkor jamiyat va inson munosabatlarini chuqur idrok etadi hamda bu jarayonni she`rlariga olib kiradi. Abdulla Oripovga ayni paytda sho`ro davri mafkuralari, ziddiyatlari ham ancha ta`sir qilar edi. Shoirning o`zi buni quyidagicha izohlaydi: "Qayga ham borardim asrimdan nari". Har qanday tog`ning salobati tog`dan yiroq ketganda bilingani kabi, muayyan bir davrga baho berishda ham vaqt hisobida undan yiroqda baho bersak, munosabatlar ham aniq ko`zga tashlanadi. Xuddi tog`ni yonidan emas uzoqdan ko`ra olganimizdek. Abdulla Oripovning ham zamon talabi, uning mafkuralari ostida yozilgan she`rlari bor. Masalan: "Lenin", "Najot qal`asi", "Vatan", "Inqilob", "Yuzma-yuz", "Hamza monologi", "Sovg`a", "Davom etayotir buyuk inqilob", "Chol va kommunizm qissasi" kabi. Bundan tashqari boshqa turli mavzulardagi she`rlarda ham Leninni, kommunizmni, sho`ro davrini ulug`lagan misralarini ko`rishimiz mumkin:

Seniki atalar shu yer, shu zamin,

Yo uni nazarga ilmaganmiding?

Uni Lenin senga xatlab berganin

Oltmish yil o`tibdi bilmaganmiding?

Ijroqo`m uy bermish bag`oyat savob,

Lekin seni ko`rmay mute shaklida.

O`n yettinchi yilgi buyuk inqilob

Sen uchun bo`lgandi bilsang aslida¹⁶

Shoir ijodida bu kabi misralarni topsak bo`ladi. Ammo bu she`rlar davr nuqtayi nazaridan yozilgan she`rlardir. Abdulla Oripovning she`rlari

¹⁶ Oripov A. Yillar armoni.- Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.- 442 b

mundarijasini ko`rsak, she`rlarining tub mohiyatida umuman boshqa mavzular va g`oyalar mavjudligini ko`ramiz. Shoir she`rlarining falsafasini o`rganar ekanmiz buni yaqqolroq ko`ra boshlaymiz. She`rlarida bir-birini rad etuvchi fikrlar ham talaygina. Buni davr bilan bog`lagan holda to`g`ri tahlil qilishimiz kerak. Abdulla Oripovning “Malomat toshlari” she`ri nafaqat shoir ijodidagi balki butun o`zbek she`riyatidagi eng yuksak falsafiy ruhda yozilgan she`rlardan biridir. Ushbu she`r 1976-yilda yozilgan.

Ming yillab samoga boqdi odamzod,

Falakdan tiladi madad va imdod.

Va lekin topgani falokat bo`ldi,

Shul sabab har so`zi malomat bo`ldi.

Chorasiz Mashrabning qiyomati bu,

Insonning Xudoga malomati bu.

“Men odam edim-ku,inson farzandi!”

Bu-yetim G`afurning malomat bandi.

Hanuz sarhadlardan g`amgin sas kelur.

Malomat toshlari basma-bas kelur¹⁷

Malomat toshlari ramziy-majoziy timsol bo`lib, odamzodning yurak-yuragidagi savollar hayqirig`idir. Unda asrlar mobaynida ozodligi,huquqi,baxti tortib olingan insonning asriy armonlari o`z aksini topadi. She`rni o`qir ekanmiz,avvalo uni tushunishimiz emas,his qilishimiz kerak. “Malomat toshlari”dan insonning ming yillik savollariga javob izlaymiz. Ammo topgani falokat bo`lgani, savollari yana ham savollar bilan qolganini ko`ramiz. Abdulla Oripovning “Munojotni tinglab” she`rida ham shu she`rdagi kabi ruh bor.

¹⁷ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-346 b

Agar aldamasa shu sovuq similar
Gar shul eshitganim bo`lmasa ro`yo,
Sen beshik emassan,dorsan,tabiat,
Sen ona emassan,jallodsan dunyo!

Eshilib to`lg`onib ingranadi kuy,
Asrlar g`amini so`ylar “Munojot”.
Kuyi shunday bo`lsa,g`amning o`ziga,
Qanday chiday olgan ekan odamzod!¹⁸

Ushbu she`rda ham malomat toshlari kabi iztirobli savollar,insoniyatning dardi bu qadar og`ir ekanligi ko`rsatilgan. Shoir yashayotgan jamiyatda faqat shodlik va baxt kuylanayotgan bo`lsa-da, u o`zini baxtli hayqiriqlar bilan aldamaydi,shoirni asriy insoniyat g`ami qiynaydi. Abdulla Oripov shu g`am bilan yashab,she`rlari bilan unga javob izlaydi.

Hozirgi kunda adabiyotimizda istiqloldan oldingi davrlarda yaratilgan asarlardan o`sha davrni qoralash, sho`ro davri jamiyatining illatlarini ochish uchun foydalanish birmuncha ortgandek. Ammo bu degani xohlagan she`rni o`zimiz istagan rangga bo`yab,tahlil qilish degani emas. Har bir tadqiq qilinayotgan asarni aniq bir ilmiy faktlarga,xulosalarga tayangan holda qilsak, ishimizning sifati va yashovchanligi oshadi. Shu o`rinda Abdulla Oripovning “Tanlangan asarlar”ida keltirilgan bir xulosa diqqatimni tortdi:“Agar Abdulla Oripovning tabiat bilan bog`liq barcha she`rlari (“Bahor”, “Tabiat” va hokazo) strukturasidan, tahlilidan, ruhidan kelib chiqiladigan bo`lsa,she`r faqat tabiat manzarasi tasviriga bag`ishlanmaganligi ayon bo`ladi. Uni o`lkani yov (ya`ni mustamlakachilar) egallab olgan,el(ya`ni xalq) qora ko`lankani ,namxush xazonni(mustamlakachilik

¹⁸ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-60 b

bo`yinturug`ini) o`z yelkasidan siltab tashlay olmay, mute holatida ,tolzor (yurtning ahli donishlari,yetakchilari) ham sukutda,novdalari qotib qolgandek,ko`lankani supurib tashlashga jur`ati yetmagandek, biroq bu abadiy emas,qachondir bulut toshib, sharros yomg`ir quyishi, ko`lankaning daf bo`lishi, yoqimsiz uvada xazonning itqitilishi, bog`ning tozarishi ya`ni egamenlik intizorlik bilan kutilmoqda, deb tahmin qilish mumkin”¹⁹. Ushbu izoh Abdulla Oripovning “Manzara” nomli she`ri uchun yozilgan:

Bulut toshdi,

Vodiy osmonini

Qoplab oldi xira ko`lanka.

Yel ovvora, namxush xazonni

Uchirolmay bog`dan yo`lakka.

Novdalari birdan qotganday

Ko`rinadi sukutda tolzor.

Go`yo nimanidir kutganday

Bulutlar ham yuvvosh,beozor...²⁰

She`rda go`zal kuz manzarasi tasvirlangan. Ammo yuqoridagi tahlilda ba`zi sun`iyliklar bordek. Tahlilda xalq yelga o`xshatiladi. Yelning xalqqa nisbat berilishida g`alozlik bordek. Yelning xususiyatida beqarorlik,yengillik bor. Shu sababdan men bu tahlildagi o`xshatishlarga qo`shila olmadim. Abdulla Oripov so`z orqali eng go`zal manzaralarni rassomdek chizadi. Ba`zan she`rni o`qib tasvirni ko`z oldingizga keltirasiz. Yuqoridagi she`rda ham go`zal tabiat manzarasi tasvirlangan. Holat shu qadar chiroyli tasvirlanganki,uni faqat his qilish kerak. Abdulla Oripov ijodida bunday go`zal manzaralar tasvirlangan she`rlar juda ko`p.

¹⁹ Begimqulov D.Ruhiyat iqlimlari inkishofi // Oripov A. Tanlangan asarlar.1-jild.-Toshkent: G`.G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi,2013.-278-279 b

²⁰ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-73 b

Parchagina bulut,

Cheksiz osmon,

Adir ortidagi yolg`izoyoq yo`l,

Barcha tashvishlarni unutib shodon

Qaytgim kelayotir qoshingga butkul²¹

Ushbu “Sog`inch” deb nomlangan she`rda 3 ta predmet orqali eng go`zal tabiat manzarasi tasvirlangan. Parchagina bulut, cheksiz osmon, yolg`izoyoq yo`l butun bir jarayonni shu qadar tasvirlaganki, lirik qahramonning sog`inchga yo`g`rilgan tuyg`ulari shu uch tasvir orqali ko`z oldimizda gavdalanadi. Bu shoirning mahoratini ko`rsatib beradi. Bu kabi she`rlarni faqat his qilish kerak.

Shoirning bolaligi ikkinchi jahon urushi, o`smirligi esa urushdan keyingi o`ziga xos qiyinchiliklar davriga to`g`ri keldi. Ijodkorning shaxsi, dunyoqarashi mana shu muhitda shakllandi. Ijodkor umumiy ta`limni ham oliy ta`limni ham sho`ro davrida o`qib o`rgandi. Shoir juda ko`p she`rlarida, o`zi yashab turgan muhitni, insonlarni, oshkora tanqid qiladi. Badiiy ijod va ijodkor dunyoqarashi bir-biri bilan uzviy aloqador hodisalardir. K.M. Rol bu xususda quyidagicha fikr bildiradi:” San`atkorning ijodiy kredosi, atrof voqelikka munosabati, uning etik va estetik ideali aynan badiiy ijodda in`ikos topadi”. Darhaqiqat, har bir ijodkorning o`z dunyoqarashi va o`z tuyg`ulariga mos haqiqatlari bo`ladi. Abdulla Oripovning dunyoqarashi shakllanishida xalqning asriy an`analari, udumlari, xalq og`zaki ijodi ham asosiy o`rinni egallaydi. Chunki ijodkor sho`ro deb atalgan ildizlari yo`q daraxt ostida bo`lsada, uning ruhiyati olis tog`larda, ovozi esa cho`qqilarda yangrardi. Abdulla Oripov sho`ro madhiyalari bilan emas, xalqining yuragi bilan yashadi. Uning dardlarini his qildi, u bilan birga yig`ladi, u bilan birga orzu qildi, u bilan birga izrirob chekdi. Ba`zan esa xalqiga ham o`zining alamli gaplarini aytishdan qo`rqmadi.

²¹ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-268 b

Mashrab osilganda qayoqda eding?
Lorka otilganda qayoqda eding?
Surishtirganmiding Qodiriyni yo,
Qalqon bo`lganmiding kelganda balo?
Hukmlar o`qilur sening nomingdan
Tarixlar to`kilur sening nomingdan
Nimasan? Qandayin sehrli kuchsan?
Nechun tomoshaga bunchalar o`chsan?
Qarshingda hasratli o`yga tolaman,
Qachon xalq bo`lasan ey,sen-olomon?!²²

Shoirning ushbu she`rida qanchalik iztirob bor? Ba`zan o`zim ham o`ylab qolaman. Biz hozir ham tomoshaga o`ch emasmikinmiz? Shoirning ushbu savoli bugungi kunda ham o`z javobini topmagandek go`yo. Hukmlar uning nomidan o`qiladi, ne-ne buyuk tarixlar ham uning nomidan to`kiladi. Tomoshaga bu qadar o`ch bu kuch qachon xalq bo`lishini o`zi ham bilmaydi.

“... qish kunlarida to`ylarga qo`shni tumanlardan nomdor baxshilar kelib,tong otgu niche doston aytishardi. Biz bolalar baxshini tinglay-tinglay bir-birimizga biqinishib uxlab qolar ham edik. Yanglishmasam,o`shanda Umur shoir degan baxshining dostonlarini ko`p eshitganman”²³. O`sha dostonlar, rivoyatlar, ertaklar orqali shoirning shuuriga badiiy so`z bilan birga olis asrlarda yashagan xalqning tuyg`ulari,ruhiyati ham qo`shilib kirgan. Psixologiyada bir hodisa mavjud. Agar inson biron narsani o`ylab uxlab qolsa,yoki biron qo`shiq tinglab uxlasa o`sha

²² Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-432 b

²³Oripov A.Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,2000. - 7 b

qo`shiq yoki o`ylagan narsasi ruhiyati bilan uyg`onadi. Yuqoridagi matnda keltirilgan “baxshini tinglay-tinglay uxlab qolish”da ham buyuk bir hikmat bor. Dostonlar haqida Rayxonova ham o`z fikrlarini keltirib o`tgan: ”Xalqning dostonlarda mujassamlashgan ulkan ruhiy qudrati, tarixning eng sharaflari lahzalari, muqaddas an`analari va tafakkuri, tasavvuri ,tahayyulotining bepayon quvvati o`sha fursatlarda bo`lg`uvchi shoirning botini, iste`dodi bilan omuxtalashgan va Abdulla Oripov siymosida har bir xalqda vaqti-vaqti bilan maydonga chiqajak mutafakkir shoirni, dahoni uyg`otgan”²⁴

Abdulla Oripovning yuqorida aytganimiz kabi ijodini ikki bosqichga bo`lib o`rganamiz.

3. Sho`ro davri. XX asrning 60-yillaridan 1991 yilgacha.
4. Mustaqillik davri. 1991-2016 yillar

Men ushbu dissertatsiyamda shoirning asosan mustaqillikkacha bo`lgan davrdagi she`rlarini tahlil qildim. Abdulla Oripovning sho`ro davrida yozilgan “Tilla baliqcha” she`ri juda ko`p muhokamalarga sababchi bo`lgan.

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni

Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.

Tashlandiq ushoq yeb o`tadi kuni

Xoru xas, xazonlar ustin yopdilar.

Dunyoda ko`rgani shu tor hovuzcha

Va mudroq tollarning achchiq xazoni

Menga alam qilar tilla baliqcha

²⁴ Rayxonova M. Abdulla Oripov she`riyatida olamni idrok etish va badiiy voqelantrish tadriji:Filol.fanlari bo`yicha falsafa doktori..diss.- Qarshi,2021.-7 b

Bir ko`lmak hovuz deb bilar dunyoni²⁵

Bu haqida adabiyotshunoslardan Suvon Meliyev “Tilla baliqcha fojiasi” nomli maqolasida, Qosimov Y. “Tilla baliqchanning tolei” nomli maqolasida yaxshi va o`rinli fikrlarni keltirib o`tgan. Shoirning o`zi esa 1987-yilda akademik Baxtiyor Nazarov bilan bo`lgan suhbatda quyidagicha fikr bildirgan:”Men bu she`rni yozganda O`zbekistonni ham, O`rta Osiyoni ham hech qachon ko`zda tutgan emasman. Bu she`rni har qanday mamlakatda, har qanday tuzumda yashaydigan shoir ham yozishi mumkin”. Ammo suhbat bo`lgan yilni inobatga oladigan bo`lsak, bu kabi javob shoirning o`zi uchun himoya vazifasini bajargan. Shoir she`ri orqali hamma ko`radigan narsani hech kim qo`llamagan shaklda she`rida qo`lladi. Tilla baliq obrazi eng nodir va eng falsafiy obrazlardan biridir. Menimcha ham tilla baliq obrazi orqali butun bir xalq, millat, davlatning zamon va makondagi ahvoli ro`yi-rost ko`rsatilgan.

Bob bo`yicha xulosalar

1. Olam va uni idrok etish dialektikasi falsafa va adabiyot nuqtayi nazaridan tatqiq etildi. Bu tushunchslarning inson badiiy tafakkurida yangidan kashf bo`lishi o`rganildi.
2. Falsafiy va adabiy jarayonning she`riyat bilan aloqadorligi o`rganildi. Abdulla Oripov ijodida his-tuyg`ular, fikrlar, ruhiyat bir-biri bilan eng mukammal darajada uyg`unligi tahlil etildi.
3. Ijodkor shaxs va uning dunyoqarashi tarixiy muhit bilan aloqadorligi kuztildi. Abdulla Oripovning ijodiy kredosi, atrof voqelikka munosabati, uning etik va estetik ideali ijodi misolida o`rganildi

²⁵ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-98 b

4. Shoir ijodidan fikrlarni dalillash uchun she`rlar va hikmatli so`zlar keltirildi. Abdulla Oripovning asosan sho`ro davridagi she`rlari asosiy obekt sifatida olindi.
5. Badiiy adabiyotda natijani voqeliklar kechadigan makon, vaqt yoki voqeliklar ko`lami emas, ijodkor shaxsi mahorati hal qilishi Abdulla Oripov ijodi misolida o`rganildi.

II BOB. TARIXIY-IJTIMOIIY KONTEKSTDA IJODKOR SHAXSI VA JAMIYAT MUNOSABATLARI.

2.1&. Abdulla Oripov ijodida borliq va insoniy muammolar talqini

Inson va u bilan bog`liq turli tushunchalar, muammolar juda qadimdan eng sodda ko`rinishda boshlandi. Dastlab qadimgi dunyo tarixidan ham bilishimiz mumkinki, inson tabiat va uning voqealari oldida ojiz edi. Chunki unda yetarli bilim va malaka yo`q edi. Shuning uchun ham u o`zini-o`zi atrofidagi voqae va narsalarga tobe qilib borar edi. Tabiat va uning stixiyalari inson uchun tushunilmas bir sir edi. Ammo insonda ong va yurak bor edi. Ong tinimsiz rivojlanishda, yurak esa har lahza go`zallikka intilar edi. Inson san`atning markaziy qahramoniga aylanishi, tabiat va u bilan bog`liq jarayonlarni anglab, yirik kashfiyotlar qilgan keyingi asrlarga xosdir.

Shubhasiz ayta olamizki, Abdulla Oripov ijodining ham markazida borliq, inson va u bilan bog`liq muammolar turadi.

Koinot gultoji- insondir azal,

Undadir eng oliy tafakkur amal.

Lekin u tubanlik ichra ham tanho,

Yo falak! Ijoding buncha mukammal.

Abdulla Oripovning butun ijodini o`rgansak mana shu haqiqat ayon bo`ladiki, shoir insonni eng buyuk mavjudod ekanligini madh etish bilan bir qatorda uni tubanlik ichra ham tanholigini o`ylab iztirobga tushadi. Phd Rayxonova M. ushbu she`rni quyidagicha izohlaydi. “ Mana shu to`rtlik Abdulla Oripovning insonga oid nuqtayi nazarining ham, butun ijodining ham programmasidir, desak bo`ladi. Chunki unda Abdulla Oripovning inson va uning borliqdagi o`rniga oid qarashlari tezis shaklida o`z ifodasini topgan. Ya`ni:

1. Inson-mulki borliqdagi eng ulug` mavjudod. Ya`ni koinot gultoji(1-misra)

2. Tafakkur faqat ungagina berilgan (2-misra)
3. Inson tubanlikda ham yagona (3-misra)
4. Ikki qarama-qarshi tomoni bilan u oliy darajada mukammal qilib yaratilgan(4-misra)

Shoir butun ijodi davomida insonning mana shu xil siymosiga turli taraflardan nazar tashladi²⁶. Abdulla Oripov ijodi ijtimoiy,iqtisodiy,ma`naviy,ruhiy,sotsial taraqqiyot va tarixda o`ziga xos va o`z yo`liga ega bo`lgan ijoddir. Bu yo`lda borliq va uning Yaratuvchisi,inson va tabiatning munosabatlari,umr,umrning lahzalik nafasi,olaning soat kabi aylanuvchi va hisob-kitob qiluvchi kavgiri,zamon va makon,dunyo va insonning mohiyatni anglash jarayonidagi o`rni ,inson yuragidagi eng kichik tomchilardan eng buyuk evrilishlargacha barchasi o`z aksini topgan. Shoirning xazinaga aylangan kitoblari,falsafiy mushohadalari, teran,vazmin , betakror tuyg`ulari bilan sug`orilgan ijodi xalqimiz yuragida tomir otib,muqim o`rin egallagan.

Abdulla Oripov o`zbek she`riyatiga yangicha ruh olib kirdi. Bu milliy ruhning yuragi faqatgina shoirga tegishli bo`lgan va manguликka muhrlangan "Orifona falsafa"dir. Shoirning ismi jaranglaganda yetti yoshdan yetmish yoshgacha har bir insonning yuragida qandaydir tuyg`ular mavjlanadi. Darhaqiqat shoirning buloqdek toza,qaynab to`xtamaydigan ijodi,ne-ne toshlarga urilib,qancha-qancha mashaqqatlar ichida ham o`z yo`lini yo`qotmadi.

Odamlar,tegmangiz,mayli toshsin u,

Mayliga,tog`ni ham ko`rsin yo`lida.

Qo`ying, o`z yo`lini o`zi topsin u,

Zavqlanolsin u ham kurash so`ngida²⁷

²⁶ Rayxonova M.Abdulla Oripov she`riyatida olamni idrok etish va badiiy voqelantirish tadriji.-Filol.fanlari bo`yicha falsafa doktori..diss.-Qarshi,2021.-29 b

²⁷Oripov A.Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,2000. - 39 b

O`z yo`lini topgan, kurashning so`ngi oniga qadar mardonavor jang qila olgan bu she`riyat kitobxonlarni hamisha zavqlantirgan va yuraklaridan joy egallagan:

Dildagi ohim mening, birinchi muhabbatim

Yolg`iz Ollohim mening, birinchi muhabbatim²⁸

Shoirning she`rlarini o`qir ekanmiz, chuqur o`yga tolamiz. Ruhiyatimizda qandaydir sokinlik paydo bo`ladi. Xayollarimiz noma`lum manzillar sari bizni chorlay boshlaydi:

Chuvaladi o`ylarim sensiz,

Xayolimga taroq urgayman

Mening qo`lim yetmagan yulduz

Tushlarimda seni ko`rgayman²⁹

Abdulla Oripov she`rlari ruhiyatda sokinlik bilan birga isyon ham qiluvchi falsafiy she`rlardir. Bu shunday falsafaki, oddiygina bir toshni qo`lingizga olsangiz, butun bir to`g` yuragingizda qad ko`taradi. Tomchida quyosh aksi ko`ringanidek bu she`rlar orqali dunyo, hayot haqidagi fikrlarimiz keng quloch yozgandek bo`ladi. Parvoz qilishga shoshilamiz. O`z-o`zidan bizda “katarsis” jaryoni boshlanadi. Shoirning ushbu she`rida ham mana shu hodisani kuzatamiz:

Qismatni nariroq surib bo`lmaydi

Bilmaysan yo`lingni qay vaqt to`sisin

Ko`z bilan hech qachon ko`rib bo`lmaydi

Daraxt va tirnoqning qanday o`sisin.

Nafrat ham ulg`ayar sekin qatma-qat

²⁸ Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2000. - 55 b

²⁹ Oripov A. Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 2000. - 112 b

Ezgu hislaringga bermay qo`yar erk,

Bolam, sen uni ham etgil nazorat

Daraxt va tirnoqni qaychilagandek³⁰

Qismat-umrimizning qaysidir bekatida qo`limizga tutqazilishi muqarrar kitob. Vo
ajab, bu kitobga so`zboshini kim yozibdi-ya?! Beixtiyor kitobni varaqlashga
tushamiz. Ammo kitob bo`m-bo`sh. Har bir sahifadagi sarlavhalar onasini mushtoq
kutgan bolalardek javdirab turibdi. Har birining ko`zlarida bir tilak:”meni uvol
qilma”. Uvol qiluvchi,shirin jonlarga achchiq azob beruvchi,yuragimizni qora
qozonga aylantiruvchi tuyg`ulardan biri bu-nafratdir...

Abdulla Oripov juda ko`p she`rlarida nafrat,ichiqoralik,hasad haqida juda chiroyli
tashbehlar yaratgan. Shoir nafratning paydo bo`lishini daraxt va tirnoqning
o`shiga qiyoslaydi. Daraxt va tirnoqning qanday o`shini ko`z bilan ko`ra
olmaymiz. Ammo o`sh bo`lgandan keyin buni payqamay bo`lmaydi. Ularni
darrov qaychilab,kerakli shaklga solamiz. Xuddi shunday inson ham hayotda
qaychilanib yashashi kerak. Nafaqat o`zini balki tuyg`ularini,ruhiyatini ham
muttasil qaychilashi,kerakli shaklga solib turishi kerak. Aslida dunyo,hayot,hatto
umrimiz ham Ollohning qaychisida...

Dunyoda ming yillik xarobalar ko`p,

Urushlardan yodgor,sellardan yodgor.

Mozorlar qalashib yotibdi to`p-to`p,

Aslida ular ham cho`ng xarobazor.

Vujudimni teshar yillar shamoli,

Yurak tilka-tilka turfa ozordan.

Bolam,xabar olgin,tutmay zavoli,

³⁰ Oripov A.Tanlangan asarlar. 1-jild.- Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,2000. - 70 b

Shoir deb atalgan xarobazordan...³¹

Shoirning “O`tinch” nomli ushbu she`rida, mahzunlik bilan birga, rad etib bo`lmaydigan haqiqatlar bor. She`rni o`qigandan tuyg`ularimiz harakatga kelib, soat kabi bong ura boshlaydi.” Ming yillik xarobalar” haqida so`z ketganda, ularning sababchisi ham tabiiy ofatlar ham urushlar ekanligi aytilgan. Ahamiyat bering, shoir ularga nisbatan “yodgor” so`zini qo`llab, bu so`zga teran ma`no yuklaydi. She`rda darajalanish mavjud bo`lib, she`r boshida otilgan o`q dunyo, mozor xarobalaridan o`tib “shoir deb atalgan xarobazor” ga borib tegadi. Bu o`q shunchaki tegmasdan, alam bilan, fig`on bilan davosi yo`q dard bilan tegadi. Shoir she`rdagi misralar qatida o`z istiroblarini aytib o`tadi. Vujudini teshib xarobazorga aylantirgan”yillar shamoli” ga ishora qiladi. She`rni takror va takror o`qiganingiz sari yangi qirralarini kashf qilaverasiz. Olamni Abdulla Oripov falsafasi bilan anglay boshlaysiz... Abdulla Oripov kichik lahzalarda buyuk haqiqatlarni yaratgan, tomchida quyoshning aksini ko`rgan ijodkordir. Uning ushbu to`rtligi insonni o`ylashga, kirlashga, izzitirob chekishga majbur qiladi.

Nogoh entikdi-yu, egildi kamon

O`q uchdi belgisiz yoqlarga tomon

Keksa otasining qaddin dol etib,

Ketib borar edi, farzand shu zamon³²

To`rtlikda kamon va o`q harakati tasvirlangan. Ammo shu harakat va predmetlar orqali shoir buyuk va achchiq haqiqatni ko`rsatgan.

She`rda ota kamonga, farzand esa o`qqa qiyoslanadi. Buni xususiyatlar misolida quyidagicha keltirishimiz mumkin:

Ota-kamon=egilgan, qaddi dol, vazifasi o`q otish

Farzand-o`q=adi, tik vazifasi manzilga tegish

³¹ Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma`naviyat nashriyoti, 2003. 23-b

³² Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma`naviyat nashriyoti, 2003. 66-b.

Ota farzandini o`q kabi qaysidir manzilga yo`llaydi. Farzand esa otadan uzoqqa, taqdir atagan manzilga qarab uchmoqda. To`rtlikda “belgisiz yoqlar” degan so`z bor. Demak ota ham farzand ham manzil qayerdaligini bilmaydi. Ammo shu yerda masalaning nozik joyi ham bor. O`qni kamon otdi, mo`ljalni ham kamon oldi... Bu yerda otaga ham asosiy e`tiborni qaratishimiz kerak. She`riyatda kamon va o`q obrazi bor. Ammo bu predmetlarni farzand va otaga o`xshatish yangi topilmadir. Abdulla Oripov ijodida bunday kashfiyotlar juda ham ko`p.

Abdulla Oripov she`rlarida axloq va odob, sabr-qanoat, sadoqat va muhabbat, ma`rifat barcha ezgulik va yovuzlik haqidagi fikrlar ixcham tarzda berilgan. Ularni aforizm shaklida qo`llash uchun ham juda qulay. Abdulla Oripov she`rlari o`qilishi oson, omma uchun ham alohida auditoriya uchun ham birdek qadrli. Satrlar shunchalar quymaki, ba`zan yodlab olganingizni o`zingiz ham bilmay qolasiz.

2.2-&. Ijodkor she`rlarida jamiyatga bog`liq munosabat va muammolar

Ijodkor shaxsining jamiyat bilan munosabatlari hamisha muarakkab tarzda bo`lgan. Sababi haqiqiy ijodkor shunchaki asar yaratuvchi emas, u borliqni har doim yukak tafakkur bilan anglaydi, jamiyat va uning muammolarini teran nigoh bilan ko`ra oladigan insondir. Ijodkor shu bilan birgalikda o`zi ko`rganlarni, his qilgan haqiqatlarni o`z ijodida ham ko`rsatib beradi. Hayotimizdagi hamma jarayon va narsalar nisbiy xarakterga ega. Shuning uchun ham aslini olganda ideal jamiyat bo`lishi mumkin emas. Tuzumning har qanday xususiyati ham nisbiydir.

Juda yaxshi!-deymiz mana bu narsa,

Go`yo hukm kabi yangrar so`zimiz.

O`ylab ko`rganimizmi hech biror marta

Kimimiz o`zimiz?

Juda yomon!-deymiz mana bu narsa,

Go`yo hukm kabi yangrar so`zimiz

O`ylab ko`rganimizmi hech biror marta

Xo`sh, kim o`zimiz?

Kingadir yoqamiz biz o`zimiz ham,

Kingadir yoqmaymiz biz ham o`zimiz.

Shunaqa charxpalak ekan bu olam,

Demak nisbiy erur har bir so`zimiz³³

Haqiqiy ijodkor o`zi yashab turgan davr va jamiyatning xolis baholovchisi sifatida maydonga chiqadi. Abdulla Oripov XX asrning 60-yillari ikkinchi yarmida o`zbek she`riyatiga kirib keldi. Bu davrda o`zbek she`riyati darg`alari G`afur G`ulom, Maqsud Shayxzoda, Oybek o`z ijodiga yakun yasagandi. Ijtimoiy-siyosiy vaziyat ancha yumshagan bo`lsa-da, sho`ro jamiyati mafkuralari,zanjirlari hali ham mustahkam edi. Abdulla Oripov hayoti va ijodi turli ziddiyatli davrlarda kechdi. Buni shoirning yozgan she`rlari zamiridan bilsak bo`ladi.

Olti oykim,she`r yozmayman,yuragim zada,

Olti oykim,o`zgalarga tilayman omad.

Olti oykim,do`stlarim ham pana-panada

Iste`dodim so`nganidan qilar karomat.

Nimanidir axtaraman-she`rdan ham ulug`,

Nimanidir axtaraman-nondan azizroq.

³³ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-346 b

Dunyo o`zi bepayon-ku,ranglarga to`lug` ,

Biroq mening ko`zlarimdan ranglar ham yiroq³⁴

Bir qaraganda she`rdagi tushkunlik o`ta shaxsiy kayfiyatdek ko`rinadi. Ammo she`rning tag zamiridagi ma`nosida ruhi siniq,erki bo`g`ilgan insonning tuyg`ulari tasvirlangan. Shoirni nafaqat shaxsiy dardlar balki butun insoniyat taqdiri,iztiroblari ham bezovta etadi. 1963-yilda yozilgan “Pushkin” she`rida Abdulla Oripov ilk marta ijodkor shaxs va jamiyat munosabatlarini o`z she`riga olib kirdi. She`r g`iybat,g`araz bilan sasigan dunyoga la`nat aytish bilan boshlanadi. Ulug` rus shoiri o`limiga sababchi bo`lgan duel shaxsiy ko`rinishga ega bo`lmasdan, unda haqiqat va adolatsizlik,shaxs va ijtimoiy muhit o`rtasidagi ziddiyatlar ham o`z ifodasini topganligini shoir yosh bo`lishiga qaramay ancha teran tushungan edi. Ushbu she`rda haq va haqsizlik,inson va jamiyat munosabati,muammolari tahlil qilingan. Abdulla Oripovning “Qo`riqxon”she`rida ham jamiyat va inson hayotidagi muammolar ancha yorqin ko`rinishda tasvirlangan. She`r orqali jamiyatda ancha kamyob bo`lgan insoniy fazilatlar hayvonlar obrazi orqali tahlil qilingan. She`rdagi misralarni kichik aforizmlar ko`rinishida ham ishlatishimiz mumkin:

Ezgulikni asrang,olamda u ham

Tojdor turna kabi bo`lmasin kamyob.

Oqibatni asrang,oqibat go`yo,

Ayiqday qaydadir topmasin zavol.

Hayoni asrangiz,kuymasin hayo

³⁴ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-129 b

Otashga duch kelgan polopon misol³⁵

She`r so`ngida yakuniy va asosiy fikr aytiladi. She`rda darajalanish orqali navbatma-navbat fazilatlar va ularning ahamiyati ko`rsatilgan. Hamda xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, bugungi davrda dunyo ham insonning qalbi ham qo`riqxonaga kabi yordamga muhtojdir.

To`qayga o`t ketsa yongay bus-butun,

Adolat borliqqa yolg`iz onadir.

Dunyo ham, insonlar qalbi ham bugun

Yovuzlikdan zarda Qo`riqxonadir³⁶

Abdulla Oripovning sho`ro davrida yozilgan "Tilla baliqcha" she`ri juda ko`p muhokamalarga sababchi bo`lgan. She`r orqali jamiyat va ijtimoiy-tarixiy muhit yuksak falsafiy obraz bilan ko`rsatib berilgan.

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni

Shu loyqa hovuzga tomon otdilar.

Tashlandiq ushoq yeb o`tadi kuni

Xoru xas, xazonlar ustun yopdilar.

Dunyoda ko`rgani shu tor hovuzcha

Va mudroq tollarning achchiq xazoni

Menga alam qilar tilla baliqcha

Bir ko`lmak hovuz deb bilar dunyoni³⁷

³⁵ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-405-406 b

³⁶ O`sha manba,-406 b

³⁷ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-98 b

Bu haqida adabiyotshunoslardan Suvon Meliyev “Tilla baliqcha fojiasi” nomli maqolasida, Qosimov Y. “Tilla baliqchanning tolei” nomli maqolasida yaxshi va o`rinli fikrlarni keltirib o`tgan. Shoirning o`zi esa 1987-yilda akademik Baxtiyor Nazarov bilan bo`lgan suhbatda quyidagicha fikr bildirgan:”Men bu she`rni yozganda O`zbekistonni ham, O`rta Osiyoni ham hech qachon ko`zda tutgan emasman. Bu she`rni har qanday mamlakatda, har qanday tuzumda yashaydigan shoir ham yozishi mumkin”. Ammo suhbat bo`lgan yilni inobatga oladigan bo`lsak, bu kabi javob shoirning o`zi uchun himoya vazifasini bajargan. Shoir she`ri orqali hamma ko`radigan narsani hech kim qo`llamagan shaklda she`rida qo`lladi. Tilla baliq obrazi eng nodir va eng falsafiy obrazlardan biridir. Menimcha ham tilla baliq obrazi orqali butun bir xalq, millat, davlatning zamon va makondagi ahvoli ro`yi-rost ko`rsatilgan. Abdulla Oripov “Minorai Kalon tepasidagi laylak” she`ri uchun ham o`sha davrlarda juda ko`plab ziddiyatlarga duch kelgan edi. She`rda Buxoro va laylak haqidagi rivoyat eslanadi. Shu bilan birga she`r so`ngida juda achchiq va iztirobli haqiqat ham kinoya bilan aytib o`tiladi. Laylakning oyoqlari g`o`zaga, tanasi esa paxtaga o`xshaydi. Bu bilan shoir paxta ekilmagan birgina Minorayi Kalon tepasi qoldi deya achchiq kinoya qiladi.

Qani nay ber menga, do`stginam,

Bergil, mayli, rubob bo`lsa ham.

Ber, bir nafas bo`shatib olay,

To`lib ketgan yuragimni man³⁸

Rubob, nay obrazlari orqali yuragini bo`shatib olish vositasi ifodalangan. Abdulla Oripov ijodida nay obrazi turli ko`rinishlarda o`z ifodasini topgan. “Nay” nomli she`rida erksizlikni, tutqunlikni nay obrazi orqali ochib bergan. Ya`ni adirlarda durkun, shamollarga quchoq ochib yashayotgan nayning tanasiga bir kuni insonlar

³⁸ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1987.- 91 b

pichoq solishdi. Insonlar orqali insonlarga keladigan fojia tasvirlangan ushbu she`rda, nay ko`rgan xo`rlıklaridan nola chekib yuboradi. Ammo uning bu izrirobli ovozi, boshqalarga rohat bag`ishaydi. Abdulla Oripovning “Munojotni tinglab” she`ri ham davr va insoniyat munosabatlarini ko`rsatib bergan. She`r orqali insoniyatning dardli iztirobi, taqdiri tabiatdan, dunyodan achchiq savol sifatida so`raladi:

Qani, ayt, maqsading nimadir sening,

Nega tilkalaysan bag`rimni ohang,

Nechun kerak bo`ldi senga ko`z-yoshim

Nechun kerak, rubob, senga shuncha g`am!³⁹

She`rda satrdan-satrga o`tgan sari iztiroblar darajasi oshib boradi. Darajalanish kengayib, achchiq dod bilan birga savollar she`rning ta`sirini yana ham kuchaytiradi.

Shoir aniq va qat`iy tarzda dunyoga, tabiatga savol bilan yuzlanadi. Hamda she`r oxirida teoremani fikrni o`rtaga tashlaydi. Ammo bu teoremani isbot qila oladigan kimsa yo`q. Hatto shoirning o`zi ham bunga ojiz.

Eshilib, to`lg`onib ingranadi kuy,

Asrlar g`amini so`ylar “Munojot”.

Kuyi shunday bo`lsa, g`amning o`ziga

Qanday chiday olgan ekan odamzod!⁴⁰

Abdulla Oripovning Erkin Vohidovga bag`ishlab yozilgan “Arslon chorlaganda” she`rida ham ijtimoiy muhit juda yorqin ranglarda aks ettirilgan.

³⁹ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-60 b

⁴⁰ O`sha manba 60-b

She`rda arslon va qumursqalar obrazi orqali taqdir va zamondosh insonlar tasvirlangan. Shoir afsus bilan bu buyuk yo`lda unga qumursqalar safardosh bo`lganini kinoya qiladi:

Biz ham yuksaklarga tikkandik ko`zni,

Bizda ham bor edi matonat bardosh.

Arslon chorlaganda qoshiga bizni

Lekin qumursqalar bo`ldi safardosh⁴¹

Ammo shoir qumursqalar har bir davrda va har bir zamonda bo`lishini aytib o`ziga biroz bo`lsa-da taskin bergandek bo`ladi. Ammo qumursqalarning ishi faqatgina talashdir. Ular barcha buyuk narsalarni ham sekinlik bilan yo`q qilishi mumkin. Shoir ham bu kabi zamondosh insonlaridan qo`rqib,agar bu yo`lda qumursqalarga yem bo`lsak, arslon buni bilarmikin deya o`yga toladi.

Jami tiriklikka tanish shu xatar

Qumursqa yaralgan yoppa talarga.

Do`stim,alam qilar arslon bexabar,

Yem bo`lib ketsak bu qumursqalarga⁴²

Abdulla Oripov va uning yaqin do`sti Erkin Vohidov ham jamiyatdagi tuzum sababli juda ko`plab ziddiyatlarga,tanqidlarga uchradi. Ayniqsa “Tilla baliqcha” she`ri yozilganidan keyin Abdulla Oripov juda ko`plab tazyiqlarga uchrangani va ancha vaqt qalamini qantarib yurgani haqida Ozod Sharafiddinov o`z xotiralarida iztirob bilan eslaydi. Ehtimol, shu kabi voqealar bu she`rning yozilishiga sababchi bo`lgandir. Ammo she`rning falsafasi,obrazlari nihoyatda kuchli. Shoir birgina qumursqalar so`zi bilan atrofidagi insonlarning darajasini belgilab beryapdi,shu bilan birga ular mayda bo`lsa-da, ulardan qo`rqish haqida

⁴¹ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-456 b

⁴² O`sha manba 456-b

ham sekin aytib o`tadi. Abdulla Oripov ijodida jamiyat u bilan bog`liq munosabatlarni ochiq ko`rsatgan she`rlar juda ko`p. Bu she`rlarning goh ochiq, goh yashirin ko`rinishda zamon va u bilan bog`liq muammolar tasvirlangan.

Bob bo`yicha xulosalar

1. Tarixiy muhitda ijodkor shaxsi dunyoqarashining shakllanishi Abdulla Oripov ijodi misolida o`rganildi. Shoirning falsafiy fikrlari aks ettirilgan she`rlari orqali fikrlar mustahkamlandi.
2. Ijodor she`riyati davrlarga bo`lindi. Sho`ro davridagi she`rlari asosida jamiyat bilan bog`liq munosabatlar va muammolar tahlil qilindi.
3. Ijodkorning ijodiy kredosi, atrof va voqelikka munosabati, etik va estetik ideali tadqiq etildi
4. Abdulla Oripov she`rlari orqali tuzum ziddiyatlari o`rganildi va ochib berildi.

III BOB. ABDULLA ORIPOV BADIY TAFAKKURI,IJODIY YUKSALISH KATEGORIYASI

3.1&. Shoir she`riyatida ijodiy yuksalish tadriji

Abdulla Oripov ijodi buyuk bir cho`qqi kabi osmonlarga bo`y bergan bir ijoddir. Har qanday tog`ning tepasiga yo`l uning etagidan boshlangani kabi dissertatsiyamning ushbu bobida mana shu ijodiy yuksalish kategoriyasini tahlil qilmoqchiman. 1957-yildan 1983-yilgacha bo`lgan davrni hozirgi ishim uchun asosiy obyekt sifatida oldim.

Shoirning dastlabki she`rlari 1957-yildagi she`rlar asosan tabiat va motivatsion ruhdagi she`rlardir. Bu she`rlarda asosan baxt, yuksak manzillarni ko`zlagan inson, uning mashaqqatli yo`li haqida so`z boradi. “Uchqun”, “Qushcha”, “Yulduzlar”, “Tog`lar”, “Cho`pon”, “Kapalak va men”, “Sevgisiz odam” ushbu she`rlar shular jumlasidandir.

Achinmayman, sizga o`ylarim,

Achinmayman ,sizga uzuzn tun.

Achinmayman,chunki otashga,-

Oq yo`l berar odatda,uchqun!⁴³

Shoir ushbu jumlar orqali o`zi uchun o`zi bashorat qilayotgandek go`yo. U mana shu mashaqqatli yo`lga tayyordek. U buning uchun barcha qiyinchiliklar, iztiroblarga ko`z yumadi. O`z yo`lini olovli yo`l deya uchqunni esa bu otashga oq yo`l beruvchi ekanligini ta`kidlaydi. Keyingi she`rlarda tabiat bilan bog`liq uyg`unlik,baxt yaqqol ko`zga tashlanadi.

Kel, yashaylik hamisha birga

Bizda bahor gullar barchasi

⁴³ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-23 b

Bilsang men ham chaman o`lkamning

Sho`x va quvnoq, shod o`g`ilchasi⁴⁴

Bu satrlar davomli bo`lib keying she`rlarda ham bu tuyg`u bevosita davom etadi.

Yulduzlar, o, bo`shliq, musaffo chiroy!

Sen ilhom gulida kumush shabnamday

Ucharman siz bilan bir kun paydar-pay,

Osmon gumbazida bahsga tushganday⁴⁵

Qushchaga boshlangan samimiy tuyg`ular, yulduzlar, tog`lar, kapalak bilan davom etadi. Shu o`rinda shuni aytish kerakki yulduzlar haqida keying yillarda yozilgan she`rlar mutloqo o`zgacha uslubda, yo`nalishda. Dastlab osmonlarga boqan shoir yulduzlarning faat go`zal raqslarini ko`rib ularga mahliyo bo`lgan bo`lsa, keyingi bor yulduzlar iztirobini anglagan holda ularga achinganday... "Eh bechora, yashash nechun, o`ynamasang, kulmasang, `o`z to`dangdan nega uchding, qaytish yo`lin bilmasang?"

Eh, siz tog`lar, dilrabo tog`lar,

Yosh qalbimni maftun etgansiz.

Yoshlik, baxtni kuylagin deya

Ijodimga ilhom tutgansiz.

Ajabo, tog`larga boqilgan ushbu samimiy ko`zlar yillar o`tib tog`larning ham buyuk dardi haqida so`zladi. Abdulla Oripov ijodi vaqt o`tgan sari o`zida turfa ranglar ko`rsatib boraveradi.

⁴⁴ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-24 b

⁴⁵ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-25 b

Shoirning 1961-yildagi she`rlarida biroz o`zgarishni sezamiz. Endi she`r mavzulariga eng go`zal tuyg`u, tillarda doston, har bir insonning yuragiga yetib boradigan muhabbat qo`shildi.

Sening ezgu xayoling bilan

Tong yorishdi, quyosh ham botdi.

Va mening bu sevgi asiri

Yuragimda hislar tutoqdi...

Ushbu she`rlar muhabbat haqidagi shoirning buyuk dostonlarga tenglashgan she`rlariga debochadir. Dastlab ushbu tuyg`u bilan bedor oshiq holi tasvirlangan she`rdan so`ng, shoir ijodiga iztirobli sevgi, topish va yo`qotish, muhabbatni manguga his qilish kabi tuyg`ular kirib keldi.

Sen chindan ham go`zalsan

Lablaring ol qirmizi...

Sochlaringga sunbul band

Ko`zlaring tong yulduzi

Sen chindan ham go`zalsan

Huzuringga keldim bot

Yolboraman, tush pastga,

Yolboraman parizod...

Chindan quyma va betakror satrlar! “Noma`lum qiz suratiga” nomli ushbu she`rda vazn jihatidan ham qofiya jihatidan ham, ma`no jihatidan ham betakrordir. She`rda an`anaviy tashbihlar bilan bir qatorda yangi tashbehlar ham qo`llanilgan. Abdulla Oripovning 1962- yillardagi she`rlarida oldin ishlatilmagan bir qator mavzular kirib keldi. “Kuz xayollari” turkumi shular jumlasidandir.

Turkumdagi har bir she`rning yakunida bir-biriga o`xshamagan turli xulosalar mavjud. Ularni alohida aforizm ko`rinishida ham ishlatish mumkin:

1

Do`stginam xayolan quchaman seni,

Xazon davrasida kutaman seni.

2

...Kuzning qo`shigida, uning ohida

Sezaman odamzod qalbin gohida

3

Bir hikmat o`qiyman xazonlardan men:

“Yashagin -u biroq yaproq bo`lma sen”.

4

Nechun uyg`onadi qaytadan bahor

Nechun inson umri bo`lmagay takror?..⁴⁶

5

Xazonlar shoshadi, shoshaman men ham

Do`stim, huzurimga shoshib kel sen ham

Shoirning ushbu yildagi “Qo`l” she`rida ham muhabbatning go`zal tuyg`ulari ta`rif etilgan. Yigit kuchga to`lgan. Uning bilaklarni to`ldirgan muskullari oldida mushkul ishning o`zi yo`qdek go`yo. Metin toshlarni ham kul qilishga qodir bu qo`llar ayni vaqtda sevikli yor yuzlarini siypalagan onda mayin gul kabi erkalanadi... sevgi haqidagi go`zal manzara kabi!

⁴⁶ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-37-38 b

Abdulla 1963-yilda yozilgan she`rlarida mavzular birmuncha ijtimoiy tus oladi.

“Odamlar”, “Eslash”, “O`ylardimki”, “Pushkin”, “Onamga xat”, “Buloq”,
“Giyoh” kabi.

Baxt kutmasman o`zgadan zinhor

Birovga baxt berolmasamn ham

Sen baxtimsan demagin, dildor,

Baxt berolmas odamga-odam.

Shoir hayotida qandaydir haqiqatlarni anglab, shu haqiqatlar izidan jimgina ketayotgandek... ammo bu she`r lahzalik kayfiyatni ifodalaydi deb o`ylayaman. “Onamga xat” she`rida ham shu kayfiyat davom etadi. Hayotning tashvishlaridan, mashaqqatlaridan charchagan shoir o`zi uchun yagona taskin topgandek bo`ladi. Onasiga maktub orqali yuragidagi og`riqlarni to`kmoqchi bo`ladi.

Qaytgim keldi,onam,yoningga,

Yuragimda ismsiz dardlar.

Sovuq xonam soat chiq-chiqi,

Tasharida xazonrez bog`lar...

She`rda og`ir bo`lsada shoir ba`zi haqiqatlarni ochiq aytadi.

Ona, ranjimagin xatimdan

Men rostini aytdim,shod damim

Sen tushmaysan aslo esimga.

Ammo ijodkor bu she`r orqali onasini ranjitmoqdan yiroq. U o`zini o`zi oshkor etmoqda. Iqror bo`lmoqda. She`rda ijodkorning bir qator iqrorlari mavjud. Hamda she`r so`ngida umumiy xulosa ham keltiradi:

Ammo, hayot o`zi bilaman

Solar seni yodinga bot-bot,

Ya`ni boshimizni doim ham

Ona bo`lib silamas hayot.

Abdulla Oripovning keying 1964-yildagi she`rlarida falsafiylik ham kuchayib borgan. Ammo bu falsafani ijodkor uzunroq shakldagi she`rlar orqali ifodalagan.

Abdulla Oripovning eng mashhur she`rlaridan biri “Men nechun sevaman O`zbekistonni?” she`ri ham aynan shu davrda yozilgan. Ustozim shoir Mengnor Ollomurod bir suhbatda Abdulla Oripov haqida juda chiroyli xotiralar aytgan edi. Abdulla Oripov bir she`rni yozib, ammo undan ba`zi sabablarga ko`ra voz kechgan, bu she`rni g`ijimlab tashlab yuborgan ekan. Ammo shoirning do`sti (aniq ismini eslay olmadim) uning xonasiga kirib qoladi. Hamda g`ijimlangan o`sha she`rni ko`rib, uni o`qib ko`radi. She`r juda ham ajoyib. Do`stining xotirasi juda ham kuchli bo`lganligi sababli she`rni o`sha zahoti yodlab oladi. Keyin shoirning yoniga borib suhbat orasida yangi she`r yozganini aytadi. Abdulla Oripov undan o`sha she`rni aytishini so`raydi. Do`sti esa shoirning o`zi hozirgina tashlagan she`rni yoddan aytib beradi. Abdulla Oripov juda ham hayron qolib, hech narsa deya olmay qoladi... shunda do`sti g`ichimlangan qog`ozni uzatib, o`z bolangdan voz kechma deydi. Ustozimning aytishicha bu she`rning nomi “Munojotni tinglab” edi.

Qani, ayt, maqsading nimadir sening,

Nega tilkalaysan bag`rimni ohang,

Nechun kerak bo`ldi senga ko`z-yoshim

Nechun kerak, rubob, senga shuncha g`am!⁴⁷

⁴⁷ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-60 b

She`rda satrdan-satrga o`tgan sari iztiroblar darajasi oshib boradi. Darajalanish kengayib, achchiq dod bilan birga savollar she`rning ta`sirini yana ham kuchaytiradi.

Shoir aniq va qat`iy tarzda dunyoga, tabiatga savol bilan yuzlanadi. Hamda she`r oxirida teoremani fikrni o`rtaga tashlaydi. Ammo bu teoremani isbot qila oladigan kimsa yo`q. hatto shoirning o`zi ham bunga ojiz.

Eshilib, to`lg`onib ingranadi kuy,

Asrlar g`amini so`ylar "Munojot".

Kuyi shunday bo`lsa, g`amning o`ziga

Qanday chiday olgan ekan odamzod!⁴⁸

Abdulla Oripovning avvalgi yillarda yozilgan kuz mavzusidagi she`rlaridan farqli ravishda ushbu yilda yozilgan kuz haqidagi she`ri falsafiy jihatdan ham ancha baland ruhda yozilgan. She`rdagi o`xshtishlar, betakror va yangichadir.

Kechgi kuzak kirmoqda, nina sanchar izg`irin,

Dehqon ham tashlab ketdi, qadrdon dala-qirin.

Huvillab qoldi mana gavjum bog`lar, bog`chalar

Yashil ellarga tomon uchib ketdi qushchalar.

Ketdi qirdan turna ham, bo`shab qoldi tabiat,

O`lik mezonlar kezar sovuq dalada faqat.

Qahrabo ko`z yosh to`kib turar faqat daraxtlar

Ne qilsin, uchay desa, ularda yo`q qanotlar...⁴⁹

⁴⁸ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-60 b

⁴⁹ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-71 b

Daraxtdan to`kilayotgan barglarni, qahrabo ko`z yoshga o`xshatish, bu avvalgi tashbehlarga aslo o`xshmaydi.

Imkonsizlik, ilojsizlik she`r orqali, daraxtlar misolida ifodalangan. Abdulla Oripov manzaralarni juda go`zal, jonli tarzda she`rgaa joylaydi. Bu albatta shoirning mahorati bilan bog`liq jarayon. She`rni o`qishingiz bilan o`sha manzara ko`z oldingizda namoyon bo`ladi.

Bulut toshdi.

Vodiy osmonini

Qoplab oldi xira ko`lanka.

Yel ovvora,

Namxush xazonni

Uchirolmay bog`dan yo`lakka.

Novdalari birdan qotganday

Ko`rinadi sukutda tolzor.

Go`yo nimanidir kutganday

Bulutlar ham yuvosh, beozor...

Abdulla Oripovning 1965-yildagi she`rlarida falsafiylik ancha kuchli. Shoirning o`ziga xos ijodi shundan iboratki Abdulla Oripov falsafasi oddiy xalqa yaqin, u alohida auditoriya tanlamaydi. Shuning uchun ham yuraklarga tez yetib bora oladi. Ijodkor oddiy jaydari falsafalar yaratganki, ular bugun xalqimiz tomonidan yod bo`lib ketgan. Ushbu yilda yozilgan “Ona tilimga” she`ri aynan fikrim dalilidir. Abdulla Orif falsafasi professor Ilhom G`aniyev aytganidek “Orifona falsafadir”. O`z davrida juda katta muhokamalarga sabab bo`lgan “Tilla baliqcha” she`ri, yillar o`tsada hali ham juda ko`plab bahslarga sabab bo`lmoqda.

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni

Shu loya hovuzga tomon otdilar

Tashlandiq ushoq yeb o`tdi o`tdi kuni

Xoru xas xazonlar ustun yopdilar

Dunyoda ko`rgani shu tor hovuzcha

Va mudroq tollarning achchiq xazoni

Menga alam qilar tilla baliqcha

Bir ko`lmak hovuz deb bilar dunyoni...⁵⁰

She`rda insoniyat haqida, muhit haqida so`z boradi. Hajmi kichik bo`lsada, bu she`rda dunyo qadar haqiqatlar bor. Eng muhimi bu haqiqatlar hech bir zamon uchun eskirmaydi va birdek ahamiyatlidir. She`rdagi tilla baliqcha haqida ko`plab muhokamalar bo`lgan. Ba`zilar tilla baliqcha shoirning o`zi desa, ba`zilar tilla baliqcha orqali SSR insonlari qismati ko`rsatilgan deyishadi. Menimcha she`rni o`qiganda har bir inson o`zi uchun nimadir kashf etadi. She`r yozilgan davrga qarasaq, darhaqiqat SSR davri uning xalqqa singdirishga uringan mafkurasi ko`rsatib berilgan. Ammo bir suhbatda Abdulla Oripovning o`zi she`rning yozilishini oddiy voqea sabab bo`lgan deydi. Ishxonadan chiqayotganimda shu manzaraga ko`zim tushdi va uni she`rda tasvirladim deydi. Balki bu davr talabi bilan aytilgan gapdir. Ammo eng muhimi ijodkorning shu oddiy manzaradan buyuk falsafa yarata olishidadir. Butun dunyoni bir ko`lmak hovuz deya ko`radigan, tilla baliqchalar bugungi kunda ham o`z hovuzida... bunday insonlar har bir zamonda topiladi. Ya`ni har yilning o`z yomg`iri bo`lgani kabi, hovuzlar o`zgarmoqda, lekin baliqlar o`sha-o`sha.

1965-yilda yozilgan eng bebaho she`rlardan biri bu "Ayo!" she`ridir. Bu she`rni juda yoshligimda yod olganman. Negadir ko`p she`rlar yodimdan chiqsada, bu she`rni aslo unutmayman. Balki yuragimdan chuqur o`rin egallagani uchundir. Darhaqiqat, she`r eng nozik hilqat haqidagi eng ajoyib she`rlardan biridir. Lev

⁵⁰ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-98 b

Tolstoy “Anna Karenina” romanini yozganida,romanni o`qigan insonlar, hatto ayol kishi ham ayol qalbini Tolstoydek yoza olmaydi deyishgan ekan. Abdulla Oripovning o`n to`qqiz yoshli beva qizning taqdiri bitilgan ushbu she`ri ham ayolning butun ichki azoblarini his qilgan holda yozilgan.

Yigitlar maktubin bitganda qondan,
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,
Uning ham panohi qaytmadi jangdan
O`n to`qqiz yoshida beva qoldi u.
Sevgidan yetimu umrdan yarim,
Qurigan ko`ksida yolg`iz belanchak
Abadiy firoqni, hayhot, do`stlarim
Abadiy visol deb bildi kelinchak
Qaqragan lablarda olovli nafas,
Kechalar kechmishin ayladi ko`mir.
Parishon sochlari yor ko`ksi emas,
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.
Yillar ham o`tdilar, hamon u yolg`iz,
Mung`ayib termular botguvchi kunga.
Ey nomard tabiat, bormi senda his,
Qaytadan baxt bersang bo`lmasmi unga?!⁵¹

Ayol va uning to`gdek og`ir qismati, ayni sevib sevilish yoshidagi qizning hayoti beixtiyor bizni ham qayg`uga soladi. Abadiy firoqni abadiy visol deya

⁵¹ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-104 b

bilgan kelinchakning taqdiri qanday bo`ladi? Uning parishon sochlariga muzdek bolish munosibmi? Sevgidan yetim bu ayolga yana baxt eshiklarini ocharmikin? Shoirni qiynagan bu savollarga ,o`zi ham javob topa olmay tabiatga achchiq kinoya bilan yuzlanadi. She`rdagi dastlabki to`rt misrada ayolning holati tasvirlangan. Beshinchi misradan boshlab qahramon jangchining bevasiga cheksiz hurmat va sharaf boshlanadi. Shu o`rinda birga uning yonidagi boshqa ayollarga ham shoir achchiq kinoya bilan yuzlanadi. Abdulla Oripov o`zining bir qator she`rlarida insonlarni ogohlikka da`vad etadi. U xalqi uchun uni uyqudan uyg`otadigan ovoz bo`lishni xohlaydi.

Odamlar uxlaydi,o`n yil,o`n besh yil

Sezmasdan,sevmasdan hissiz va mudroq.

Ba`zida ochiq gap o`rtansa ko`ngil

Uxlagim keladi mening ham uzoq.

.....

Mitti farzand bo`lib,bir dilband bo`lib

Asrim seni baxtda ko`rmoq istayman

Va lekin ba`zida uyquga cho`mib

Sendan ko`zlarimni yummoq istayman

Ammo bormi imkon bunday uyquga

Kurashga yaralgan jafokor inson

Har qanday kurash ham hayotdir unga,

Har qanday uyqu ham-o`lim har qachon!⁵²

⁵² Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-108 b

Abdulla Oripov hamisha uyqudan, mudroq bosgan yuraklardan ogoh bo`lishni aytadi. Xalqini, millatini uxlamaslikka, inson uchun uyqu o`lim bilan teng ekanligini aytish bilan birga hayot bu kurash degani deya insonlarga kuch bergandek go`yo. Shu bilan birga shoir o`zining ham uyxalshidan qo`rquda. U do`stlaridan iltimos qiladi

Nogahonda xayolga botsam

Yo uxlasam, uyg`oting darrov...

1966-1970-yillarda shoir ijodida keskin burilishlar bo`ldi. Bu yillarda yozilgan aksariyat she`rlar ayriliq, mungli qayg`ular va ayriliqqa ko`ngan inson haqida. Chunki bu yillarda ijodkor onasidan va ustozlaridan ayrildi. U chinakam ayrilqni o`z yuragi bilan his qildi. Bu esa shoirning she`rlariga yangibo`yoqlar bilan kirib keldi. "Avlodlarga maktub", "Onajon", "Alvido,ustoz", "Xayr endi..", "Ona", "Birinchi muhabbatim" she`rlari shular jumlasidandir.

Ko`kda yulduz uchsa nagohon

Bitdi, derlar qaysi bir taqdir

Bunday g`amni ko`tarmoq oson,

Ehtimol u bizlar haqdadir.

Ba`zan tunlar ko`kka tikib ko`z

Eslab deyman, onamni shu on:

Ona ketsa yulduz-ku yulduz

Qulab tushsa arziydi osmon.⁵³

Abdulla oripov uchun o`sha paytlarda butun bir osmon qulagandek edi. shuning uchun ham bu yillarda aksariyat she`rlarda mahzunlik ko`proq. Darhaqiqat, ona ketsa osmon qulab tushgandek.. bu tuyg`uni faqat shu holga tushgan insonlargina

⁵³ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-160 b

anglab yetadi. Xuddi Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi bir qo`li kesik inson singari.

Shoir endi hamma narsa o`tkinchi ekanligini, o`tgan bir onimizni hech narsa qaytara olmasligini o`z she`rida iqror sifatida aytadi.

Payt kelar va`daning qimmati qolmas ,

Muhlat bermas u dam to`lgan paymona.

O`tgan bir oningni qaytara olmas

Na ko`z yosh,na afsus va na bahona.⁵⁴

“Abdulla Orif she`riyati pokiza tuyg`ular,ismsiz dardlarning ifodasi edi. ulardan sokin ohang taralardi. Mungli bu ohang tuygb`ular bezovdaligidan,ruhiyat tovlanishlaridan yuzga kelgandi. Hasratzada, ozurdajon ko`ngil mavjlari,komillikdan “yulduzlar qadar yiroq” kishilar borligidan ozorlanish suvratlari bu she`riyatning manbalari edi. Baqiriqlar, da`vatlar she`riyati odamning ulog`iga yetib borardi-yu, ko`ngliga inmasdi. Abdulla Orifninf pichirlab aytilgan mungli satrlari o`zbekning ko`nglidan joy olib boshladi. Chaqiriq she`rlar qulo pardalariga ta`sir qilgan bo`lsa, sukunati ko`proq samimiy she`rlar ko`ngil ko`zidagi pardalarni yirta oldi. O`zbek she`rxoni bexosdan o`zida ham nozik hislar borligini payqab qoldi, nosamimiylik axloq darajasiga ko`tarilgan bir paytda Abdulla Orif she`riyati o`zbekni tuyg`ulari tamomila quruqshab qolishdan,ko`ngil jilvalari borligini to`la unitishdan salab qoldi. Shu ma`noda, Abdulla Orif she`riyatini davr yaratmadi,bil`aks bu poeziya o`zining davrini yaratdi, deyish mubolag`a bo`lmaydi... Ozbekning oltmishinchi yillarda shakllangan fikrlovchi qismi Abdulla Orif she`riyati ta`sirida dunyoga kelgan deb bemalol aytish mumkin”⁵⁵. Darhaqiqat Abdulla Oripovning 60-yillarda yozilgan she`rlari adabiyotda, insonlar ongida tub burilish yasadi. Abdulla Oripov ijodi davomida kuz mavzusiga juda ko`p bor yuzlangan. Ammo har doim bir-biriga o`xshamagan

⁵⁴ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-179 b

⁵⁵ Yo`ldoshboy Qozoqboy. Yoniq so`z.-Toshkent:Yangi asr avlodi,2006.251-252b

obrazlar, falsafalar yaratgan 1967- yildagi “Kuz manzaralari” sheʼri oldingilarini aslo takrorlamaydi.

Yana dalalarga boshlaydi havas,

Bogʻlarda xazonlar yonadi lov-lov.

Doʻstlarim bu kuzning barglari emas

Mening yuragimdan toʻkilgan olov.

Xazonni olovga qiyoslash, favqulodda yangilik edi. shoir oʻzining holatini shu bir misra orqali naqadir aniq qilib koʻrsatgan. Shu bilan birga kuz kabi kitobxonni xayolga toldiradi.

Shoxlarda mezonlar yaltirar xira

Poyida shivirlar mening kuylarim.

Doʻstlarim, bular ham mezonmas sira,

Bu mening chuvalgan, soʻngsiz oʻylarim.

Keying misra orqali shoir yana bir obraz orqali xayollarining holatini koʻrsatadi. Mezon kabi chuvalgan xayollari ham shoirdan uzoqqa ketayotgandek. Mezonlar qishdan darak beradi. Shoirning oʻylari nimadan soʻzlamogʻda...

Quyosh ham falakda bamisli roʻyo,

U endi yondirmas, yaltirar faqat.

Doʻstlar, u ham endi quyoshmas aslo,

U olis yoshlikda qolgan muhabbat.⁵⁶

Sheʼr soʻngida shoir yuqoridagi obrazlardan ham balandroq obraz orqali yoshlikdagi muhabbatni tasvirlamoqda. Sheʼrda misradan-misraga oʻtgan sari maʼno ham kengayib boradi. Kuz quyoshi, quyosh boʻlsa ham u endi aslo

⁵⁶ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:Gʻ.Gʻ ulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti,1987.-174 b

yondirmaydi, faqat uzoqdan yaltirab turadi, xolos. Xuddi yoshlikdagi muhabbat kabi. Kuz fasli shoirning holatini o`ylarini, muhabbatini qanchalar aniq ko`rsatib bergan. Olislarda qolgan qolgan muhabbatini she`rlarida turli ko`rinishlarda ifodalagan. Ammo unda mungli ohang ani sezilib turadi.

Oh, qanday o`lim bu sevgi o`limi

Unga na qabr bor, va na janoza.⁵⁷

Abdulla Oripovning 1970-1980- yillar oralig`ida yozilgan she`rlari falsafasi, ruhiyati baland she`rlardir. Shoir ijodida yangi bo`yoqlar jilvalana boshlaganini ko`ramiz. "Sog`inch" she`ri ham yuragingizga o`qilishi bilan kirib, sizni ismsiz tyyg`ular sari chorlayorgandek. She`rdagi dard, mung shunchalik yengil tarzda ifodalanganki, ham shirin orzu, ham achchiq dardlarga guvoh bo`lasiz.

Parchagina bulut,

Cheksiz osmon,

Adir ortidagi yolg`izoyoq yo`l,

Barcha tashvishlarni unutib, shodon

Qaytgim kelayotir qoshinga butkul.

Qismat mayin ichdim-achchiq va taxir,

Tuydum ehtirosning samoviy kuchin.

Dunyoda odamzod yashamas ,axir,

Faqat irodasin sinamoq uchun.

Parchagina bulut,

Cheksiz osmon,

Adir ortidagi yolg`izoyoq yo`l,

⁵⁷ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G` .G` ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-176 b

Barcha tashvishlarni unutib shodon,

Qayta olsam edi qoshingga butkul.⁵⁸

She`rda shoir go`yo rassom kabi manzara chizayotgandek. Parcha bulut, cheksiz osmon va yolg`izoyoq yo`l unga butun dunyo kabi xotiralar bag`ishlamoqda. Aynan shu lahzada lirik qahramonning quvonchi ham, qayg`usi ham bir chiziqqa tutashib ketadi. She`r kitobxonni ham noma`lum manzillar sari xayollarini olib ketadi. Yuraklar bir lahzada orziqib va shu lahzada darddan oh chekib yuboradi.

Abdulla Oripovning o`zining ta`biri bilan aytganda:” Haqiqiy lirik asarda ko`z ham quloq ham ilg`ay olmaydigan, faat ryhning torlarigina seza oladigan titratmalar mavjud bo`ladi. Go`zal va teran lirik holatni eng buyuk rassomlarning rangtasvirida ham uchratamiz. Bunday asarlarga yillab termulsangiz ham to`ymaysiz, u sizning ruhiy holatingizni butunlay boshqa o`zanga burib yuborishga qodir”⁵⁹.

Har bir ijodkorning hech qachon bitmaydigan va eskirmaydigan, har bir kitobxonning ham hamisha yuragiga eng yaqin mavzu bu-muhabbat. Muhabbat haqidagi she`rlar qaysi davrda va qanday makonda yozilishidan qat`iynazar eng yangisi va eng betakrori bo`lib qolaveradi.

Yuzlaringni mayliga yashir,

Kerak emas, nozlar, imolar.

Go`zallikning qoshida axir,

Cho`kka tushgan hatto xudolar.

Kimga foyda behuda junun

Va dunyoga g`avg`o solishdan.

Ayriliqdan qo`rqmasman bu kun,

⁵⁸ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-268 b

⁵⁹ Oripov A. Tanlangan asarlar. 7-jild. Maftunkor she`riyat.-T.,Sharq NMIU,2013.-171-b

Men qo`rqaman sevib qolishdan⁶⁰

She`ning oxirgi satrlari aksioma kabidir. Anglaysiz-u, ammo tushuntirishga so`z topa olmaysiz. Shoir she`rlarida sevdi, sevildi, sog`indi, kuydi, ayrildi... muhabbatning chigal yo`llari ichida anlagan eng buyuk haqiqati, falsafasi, iqrori: "Ayriliqdan qo`rqamasman bu kun// Men qo`rqaman sevib qolishdan"-, edi bu misralar. 1980-1983-yillarda Abdulla Oripov ijodida o`tkinchi dunyo, hayotning o`tkinchiligi, tuyg`ulardan ko`ra tajriba ustunlik qiladigan, ya`ni nasihat ko`rinishidagi she`rlar birmuncha ortdi. "Ziyo", "Qo`riqxon", "Do`stlarimga aytganlarim", "Uchinchi odam", "Iltimos", "Tulki falsafasi", "Olomonga", "Bir sirki..." kabi she`rlar shular jumlasidandir. Bu she`rlarda pand-u nasihat, falsafiylik kuchliroq. Bu she`rlarni yurak bilan o`qib aql bilan his qilish kerak. Shoirning o`zi ham qirq yoshda. Menimcha qirq yosh inson eng ko`p o`ziga savol beradigan va o`zi uchun javob izlaydigan, yuragini tinglaydigan, aqli bilan birga yashaydigan yoshdir.

Qir yil ham o`tibdi, misli bir damdek,

Qolgani ne kechar- menga noayon.

Vayrona tagida majruh odamdek

Tirmashib yashayman, hayotga tomon⁶¹

Umr, dunyoning o`tkinchiligi bu davrdagi she`rlarida ko`p hollarda asosiy o`rinlarga chiqadi. Umr qisqa edi/ Qisqartirdik yana/ Ozgina baxtni ham bo`lib tashladik/ Kulfat oqibatda qildi tantana/ Shundagina ko`zni yoshladik/ Jahldor tabiat endi yuz o`girdi/ Boqmadi, chopsak ham yig`lab ortidan/ Tirik ot o`rniga yog`och otni berdi/ Uyni esa berdi yerning ostidan. Abdulla Oripovning dastlab she`riyat maydoniga "uchqun" misol kirib kelganidan qirq yoshigacha bo`lgan ijodini qisqacha ko`rinishda tahlil qildik.

⁶⁰ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-241 b

⁶¹ Oripov A. Yillar armoni.-Toshkent:G`.G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.-463 b

3.2-&. Kichik lirik janrlardagi katta falsafalar talqini.

Ijod... Bu shunday sirli jarayonki, bu jarayonda u muzliklarni eritib, vulqonlarni muzlatib, qorong`ulikni nurga to`ldirib, yuragingizning hatto o`zingiz bilmagan torlarinida chertib o`tishi mumkin. Ijod bu o`z-o`zini anglash, ruhiyatni his qilish, yaratish va mana shu yaratishlarda yaralish zavqi. Shoirchi? Shoir kim? Menimcha shoir ana shu sirli ijod deb atalgan asovni jilovlagan inson. Abdulla Oripov ta`biri bilan aytganda esa:

Tog`day og`ir yukni kiftiga olib,

Qushday yengil bo`lib yuradi shoir⁶²

Abdulla Oripov ijodi ijtimoiy, iqtisodiy, ma`naviy, ruhiy, sotsial taraqqiyot va tarixda o`ziga xos va o`z yo`liga ega bo`lgan ijoddir. Bu yo`lda borliq va uning Yaratuvchisi, inson va tabiatning munosabatlari, umr, umrning lahzalik nafasi, olamning soat kabi aylanuvchi va hisob-kitob qiluvchi kavgiri, zamon va makon, dunyo va insonning mohiyatni anglash jarayonidagi o`rni, inson yuragidagi eng kichik tomchilardan eng buyuk evrilishlargacha barchasi o`z aksini topgan.

Abdulla Oripovning eng kichik to`rtliklaridan tortib, eng kata she`rlarigacha bo`laklar orasida uzviylik buzilmaganligini, hamda ular orasida butunlik, yaxlitlik, sistema borligini ko`ramiz. Shoir hayotning har bir lazasida, hodisasida hech kim ko`rmagan kata falsafalar borligini ko`radi.

Qismatni nariroq surib bo`lmaydi

Bilmaysan yo`lingni qay vaqt to`shin

Ko`z bilan hech qachon ko`rib bo`lmaydi

Daraxt va tirnoqning qanday o`shin.

⁶² Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma`naviyat nashriyoti, 2003. 66-b.

Abdulla Oripov kichik lahzalarda buyuk haqiqatlarni yaratgan, tomchida quyoshning aksini ko`rgan ijodkordir. Uning ushbu to`rtligi insonni o`ylashga, kirlashga, iztirob chekishga majbur qiladi.

Nogoh entikdi-yu, egildi kamon

O`q uchdi belgisiz yoqlarga tomon

Keksa otasining qaddin dol etib,

Ketib borar edi, farzand shu zamon⁶³

To`rtlikda kamon va o`q harakati tasvirlangan. Ammo shu harakat va predmetlar orqali shoir buyuk va achchiq haqiqatni ko`rsatgan.

She`rda ota kamonga, farzand esa o`qqa qiyoslanadi. Buni xususiyatlar misolida quyidagicha keltirishimiz mumkin:

Ota-kamon=egilgan, qaddi dol, vazifasi o`q otish

Farzand-o`q=adi, tik vazifasi manzilga tegish

Ota farzandini o`q kabi qaysidir manzilga yo`llaydi. Farzand esa otadan uzoqqa, taqdir atagan manzilga qarab uchmoqda. To`rtlikda “belgisiz yoqlar” degan so`z bor. Demak ota ham farzand ham manzil qayerdaligini bilmaydi. Ammo shu yerda masalaning nozik joyi ham bor. O`qni kamon otdi, mo`ljalni ham kamon oldi... Bu yerda otaga ham asosiy e`tiborni qaratishimiz kerak. She`riyatda kamon va o`q obrazi bor. Ammo bu predmetlarni farzand va otaga o`xshatish yangi topilmadir. Abdulla Oripov ijodida bunday kashfiyotlar juda ham ko`p.

Abdulla Oripov she`rlarida axloq va odob, sabr-qanoat, sadoqat va muhabbat, ma`rifat barcha ezgulik va yovuzlik haqidagi fikrlar ixcham tarzda berilgan. Ularni aforizm shaklida qo`llash uchun ham juda qulay. Abdulla Oripov she`rlari o`qilishi oson, omma uchun ham alohida auditoriya uchun ham birdek

⁶³ Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma`naviyat nashriyoti, 2003. 66-b.

qadrli. Satrlar shunchalar quymaki,ba`zan yodlab olganingizni o`zingiz ham bilmay qolasiz.

O`zi oddiygina

Kam yo`q ishida

Tonnalab ko`mir bor

Lekin ichida⁶⁴

Abdulla Oripov bu mavzu xususida juda ko`p kuyunib gapirgan. She`rlarida juda ko`p hasadgo`y va hasad mavzusida topilmas metoforalar yaratgan. Professor Ilhom G`aniyevning “Abdulla Orif falsafasi” kitobida Abdulla Oripov o`z ijodi davomida eng ko`p qo`llagan so`zlar jadvalini tuzgan. Jadvalda 48-o`rinda hasad so`zi turibdi. Yuqoridagi she`rga fikrimizni qaratadigan bo`lsak,hasadni ko`mirga qiyoslagan. Bilamizki, dunyo oq va qora ranglarda tavsiflanadi. Oq rang yorug`lik,ezgulik,quvonch va baxtni ifodalaydi. Insonning ko`ngli qanchalik oq va nurli bo`lsa,bu xususiyat uning yuziga ham ko`chadi. Darhaqiqat, hasadgo`y insonning yuragi ham qorong`ulikdan iborat. Unda ezgu fazilatlar bo`lishi mumkin,ammo qorong`ulik hammasini o`z domiga tortib ketgan. Zulmatda hech qanday yorug` lahzalar ko`rinmaydi. Hasadgo`y esa doim shu qorong`ulikda yashaydi. Bu juda yomon va xavfli kasallikdir. Bu kasallikka ham Abdulla Oripovning o`z ijodidan javob topamiz.

Nafrat ham ulg`ayar sekin qatma-qat

Ezgu hislaringa bermay qo`yar erk

Bolam, sen uni ham etgin nazorat

Daraxt va tirnoqni qaychilagandek.

Inson hamisha o`zini qaychilab,nazorat qilib yashashi kerak.

⁶⁴ Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma`naviyat nashriyoti,2003.72-b.

Abdulla Oripov ijodida mahzunlik, mung juda ko'p o'rinlarda ko'zga tashlanadi. Bu ba'zan absurtizm kayfiyatini beradi (Professor Bahodir Sarimsoqov absurtizm tushunchasini insonni hayotdan bezishi bilan bog'laydi. Hamda bu holat o'tkinchi holat ekanligini va insonning ruhiyatida uzoq davom etmasligini aytib o'tgan).

Oqar daryoga ham kimdir band bergan

Xayot kimga zahar, kimga qand bergan

Ey g'ofil, sarkash deb meni kamsitma

G'anim senga emas, menga pand bergan⁶⁵

-Nega qadding egik, nega boshing xam,

Nega nigohingni tortadi tuproq?

-Mening yer ustida tanishlarim kam

Mening yer ostida do'stlarim ko'proq⁶⁶

Bu to'rtliklarda absurtizm kayfiyati kuchliroq. Bir qaraganda shunday ko'rinadi. Ammo bu hasrat va mung shaxsiy kechinmalar bilangina bog'lanmay umuminsoniy dard bilan tomirlashgan. To'rtlikda hatto oqar daryoga ham kimdir band berganligi ta'kidlab o'tilgan. Hayot kimgadir zahar berib tarbiyalasa, ko'zini ochsa, kimgadir qand berib qalbini uxlatadi. She'rda ichki darajalanish mavjud. Satrdan satrga o'tgan sari ma'no kuchayadi. She'r so'ngida esa kulminatsion nuqtasiga ko'tariladi. "G'anim senga emas, menga pand bergan". To'rtlikda ichki tazod ham mavjud. Senga emas menga shaklida.

⁶⁵ Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2003. -69 b.

⁶⁶ Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma'naviyat nashriyoti, 2003. -73b.

Ikkinchi to`rtlikda shoir mening yer ustidan ko`ra yer ostida tanishlarim ko`p deya iztirob chekadi. Abdulla Oripovning boshqa she`rlarida ham mana shunday ruhiy holat bor. Masalan “ Pahlavon Mahmud qabri qoshida” deb nomlangan she`rida chorasiz qolgan inson timsoli,o`z muammolariga real hayotdan yechim topa olmay,ruhlar dunyosidan imdod so`raydi. Abdulla Oripov nazdida yerdagi insonlardan ko`ra, yer ostidagi insonlar unga yaqinroqdek...

Ammo juda ko`p she`rlarida markaziy o`rinni, hayotning bebaho inoyat ekanligi, tiriklikni eng buyuk ne`mat deb bilish egallaydi.

Oqshomdan boshlangay odatda tonglar,

Sukutdan uzulgay gulduros bonglar

Boshing bukma sira,xokisor banda

Erta ruhing topgay oliy ohanglar⁶⁷

Naqadar go`zal falsafa! Shoir o`xshatishlarni shu qadar uyg`unlikda bir ipga tizgan. Bu motivatsion ruhdagi to`rtlikdir. She`rda misol keltirish orqali asosiy tushuncha mustahkamlanib borgan. Ya`ni oqshomdan keyin tong boshlanishi,guldurosning sukutdan uzilishi hamda ertaga ruhing eng oliy ohanglarni topishi mumkinligi ketma-ketlikda, insonni umid va ishonch sari da`vat etadi.

She`rni tahlil qilish juda muhim jarayondir. Bu jarayonda shoir shaxsi muhim ahamiyatga ega. Chunki she`rda shoir ruhiyati, unda kechayotgan iztirob,hasrat, iqrar, istak eng nozik qalb shivirlarigacha o`z aksini topadi. Bunga Abdulla Oripov o`z asarlarida shunday ta`rif beradi:” Qaysidir shoir ijodiga baho berayotganda faqat uning, ya`ni aynan bir shoirning ruhiy qiyofasidan turib qarash kerak. Mahorati mukammal, fikri tiniq ijodkorning qaysi mavzuda bo`lsin yozgan asari kitobxon qalbiga,albatta yetib boradi. Shu ma`noda yuksak pafosning ham, quloq ilg`amas lirik entikishlari ham o`z betakror qadru qimmatini,sehru jodusi

⁶⁷ Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma`naviyat nashriyoti,2003.-76b.

mavjud”.⁶⁸ Darhaqiqat, inson uning tuyg`ulari turfa ranglarda jilolanadi. Uning qalbi, ruhiyati kardiogramma kabi doim turli chiziqlar izmida. Balandlik va pastlik... hamda bu tabiiy jarayon . Qachonki yurak to`xtasa, kardiogramma ham bir chiziqqa aylanadi. Xuddi inson kabi... Sevgi , muhabbat bu eng go`zal tuyg`ular. Har bir insonning yuragida muhabbatning eng kichik bo`lsada uchqunlari bo`ladi. Ba`zan shunday she`rlar bo`ladiki,o`sha she`rni o`qish ham bu uchqunni alangalatib yuboradi. Hazrat Ali (r.a) shunday deganlar” Aql tahorati ilm bilan,qalb tahorati ishq bilan olinadi”. Abdulla Oripovning ushbu to`rtligi ham muhabbat va uning iztirobi haqidagi eng kamyob va takrorlanmas obrazlardan biridir.

Oftob botib ketdi, ezildi boshim.

Yulduzdek sochildi ,ko`zimda yoshim

Hajringda bag`rimni yerga berurman

Tun bir lahad bo`lsa,oy qabrtoshim⁶⁹

She`rning ikki misrasini o`qiganimizda Alisher Navoiyning “Orazin yopqoch ko`zimdan, sochilur har lahza yosh, Bo`ylakim paydo bo`lur yulduz nihon bo`lg`ach quyosh”. Shohbayti yodimizga tushadi. Ikkisida ham oftob yorning yuziga, yulduzlar esa, oshiq ko`z yoshia o`xshatiladi. Ammo, bu yerdagi farqni professor I. G`aniyev o`zining “Abdulla Orif falsafasi” asarida shunday izohlaydi: “Ammo, Alisher Naoiyda parallelizm yoki, istiyora emas, balki tashbeh san`ati qo`llangan. Tahlil qilinayotgan to`rtlikda esa, oftob yorning yuziga istiora qilinib, keying misrada tashbeh san`ati qo`llanayotir”. She`rnin 3-4-misralarida betakror obraz va holat ko`rsatilgan.

Hajringda bag`rimni yerga berurman,

Tun birga lahat bo`lsa, oy qabrtoshim.

⁶⁸ Oripov A. Tanlangan asarlar.7-jild. –T.,Sharq NMIU,2013.226-b.

⁶⁹ Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma`naviyat nashriyoti,2003. 72-b.

To'rtlikda misradan-misraga o'yan sayin quyuq ohangdorlikni his qilamiz. Oshiqning holati (darajalari ortib boraveradi). Istrobi oxirgi misrada bo'rttirilib ko'rsatilgan. Tun lahaytga va oy qabr toshga o'xshatilgan. Bu yerda juda ham nozik tashbeh ko'rsatilgan. Qabr-qora, qorong'u-istirobli...yor yuzini yopsa,oshiq uchun butun zamin qabrga aylanadi. Tunni yoritgan oy ham u uchun qabrtosh. Misralarni qayta-qayta o'qisangiz yangi-yangi ma'nolarni kashf qilaverasiz.

Jamiyatning inqirozga tomon borishida ham rivojlanib yuksak darajada o'sishida ham badiiy ijodning o'rni beqiyos. Abdulla Oripovning bu xususida shunday fikrlari borki, bu fikrlar barcha zamonlar uchun birdek ahamiyatlidir:

“Ijodiy ish qanchalik individual jarayon bo'lmasin, u alal-oqibat, ijtimoiy muhitdan tashqarida namoyon bo'la olmaydi. Qolaversa,badiiy ijod hamisha jamiyatni tutib turgan arqonlardan biri bo'lib kelgan”.⁷⁰

Goho yer mehrini o'ylarkan,

Esga tushar dorning siyog'i

Ajab hikmat odam o'larka,

Uzilganda....yerdan oyog'i⁷¹

Abdulla Oripov ushbu to'rtligi orqali buyuk bir haqiqatni baralla aytdi. Inson yer qanchalar xavfsiz va mehrli ekanligini, dor tagida biladi. Yana bir hikmat shuki,inson oyog'i yerdan uzilsa o'ladi. Bu yerda ikki xil ma'noda qo'llanilgan. Ya'ni birinchisi inson dorga osilganda oyog'I yerdan uzilishi bo'lsa, ikkinchisi esa inson g'urur,obro` tufayli o'zini osmonlatda his qilib,yerdan uzilganda... menimcha bu yerda o'lim ham ikki xil ma'noda qo'llanilayapdi. Birinchisi jismoniy o'limb o'lsa,ikkinchisi ma'naviy o'limdir. Ammo ikkisida ham yuragimiz

⁷⁰ Oripov A. Tanlangan asarlar.7-jild. -T:, Sharq NMIU,2013. 179-b.

⁷¹ Oripov A. Yillar armoni.- Toshkent:G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti,1987.- 479 b

ishlashdan, ongimiz fikrlashdan, ko`zlarimiz ko`rishdan, quloqlarimiz esa eshitishdan to`xtaydi. “Epigramma” she`rida yuqoridagi fikrlar davom etgandek tuyuladi.

Sen o`lsang, nimangni ko`mamiz ekan,

Shuni o`ylab qoldik, bilonihoya...

Sen axir jismi yo`q ko`lankadirsan,

Sen axir birovdan tushgan bir soya⁷²

Hayotimizda, ko`lankadek jismi, ruhi, yuragi yo`q insonlar juda ham ko`p. Ular shoir yuqorida aytganidek allaqachon oyog`i yerdan uzilganidir. Hayotda birovdan tushgan soyadek bemaqsad, yashaydigan insonlar ustidan shoir achchiq kinoya qilgandek bo`ladi. Bunday insonlar doim birovning hayotida, birovning libosida yashashni o`ziga maqsad qilib olishadi. Aslini ko`rsangiz o`ziga tegishli hech narsasi bo`lmaydi. Hatto yuragi ham birovlarga soya bo`lishga ulgurgan.

Tingla, bu abadiy sado bo`ladi,

Gadoning dushmani gado bo`ladi,

Ikkovi bir-birin yegunicha to

O`rtada bu dunyo ado bo`ladi⁷³

Bu to`rtlik xususida professor Ilhom G`aniyevning fikrlarini keltiraman. “Odamzodning ilohiy rutabaga noloyiq ishlar bilan mashg`ul nojins vakillari yuksak ideallar uchun kurashib yurganlarni chalg`itar, ta`qib va tazyiq etar ekanlar, hayot shu ikki kuchning abadiy kurashidan iborat ekan, nima qilmoq kerak? Shoir she`rlarining qatida bu azaliy savolga ham javob bordek. Abdulla Oripov

⁷² Oripov A. Yillar armoni.- Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1987.- 483 b

⁷³ Oripov A. Yillar armoni.- Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1987.- 482 b

taraqqiyot, ikki dunyo saodatiga erishish markaziga inson irodasi, e`tiqod va idealini qo`yadi. U Shopengauerdek rivojlanish asosi, tarixni harakatga keltiruvchi kuch- odamzodning o`z irodasi, deydi. Uningcha, irodadan yaralgan inson”⁷⁴

Abdulla Oripov she`rlari ruhiyatda sokinlik bilan birga isyon ham qiluvchi falsafiy she`rlardir. Bu shunday falsafaki, oddiygina bir toshni qo`lingizga olsangiz, butun bir to`g` yuragingizda qad ko`taradi. Tomchida quyosh aksi ko`ringanidek bu she`rlar orqali dunyo, hayot haqidagi fikrlarimiz keng quloqch yozgandek bo`ladi. Parvoz qilishga shoshilamiz. O`z-o`zidan bizda “katarsis” jaryoni boshlanadi. Shoirning ushbu she`rida ham mana shu hodisani kuzatamiz:

Qismatni naribroq surib bo`lmaydi

Bilmaysan yo`lingni qay vaqt to`shin

Ko`z bilan hech qachon ko`rib bo`lmaydi

Daraxt va tirnoqning qanday o`shin.

Nafarat ham ulg`ayar sekin qatma-qat

Ezgu hislaringga bermay qo`yar erk,

Bolam, sen uni ham etgil nazorat

Daraxt va tirnoqni qaychilagandek⁷⁵

Qismat-umrimizning qaysidir bekatida qo`limizga tutqazilishi muqarrar kitob. Vo`ajab, bu kitobga so`zboshini kim yozibdi-ya?! Beixtiyor kitobni varaqlashga tushamiz. Ammo kitob bo`m-bo`sh. Har bir sahifadagi sarlavhalar onasini mushtok kutgan bolalardek javdirab turibdi. Har birining ko`zlarida bir tilak:”meni uvol

⁷⁴ G`aniyev I. Afoqova N. Abdulla Orif falsafasi. –Toshkent; Muharrir nashriyoti, 2021. 23-b

⁷⁵ Oripov A. Yillar armoni. - Toshkent: G`ulom nomidagi Adabiyot va san`at nashriyoti, 1987. - 483 b

qilma”. Uvol qiluvchi,shirin jonlarga achchiq azob beruvchi,yuragimizni qora qozonga aylantiruvchi tuyg`ulardan biri bu-nafratdir...

Abdulla Oripov juda ko`p she`rlarida nafrat,ichiqoralik,hasad haqida juda chiroyli tashbehlar yaratgan. Shoir nafratning paydo bo`lishini daraxt va tirnoqning o`shishiga qiyoslaydi. Daraxt va tirnoqning qanday o`shishini ko`z bilan ko`ra olmaymiz. Ammo o`sb bo`lgandan keyin buni payqamay bo`lmaydi. Ularni darrov qaychilab,kerakli shaklga solamiz. Xuddi shunday inson ham hayotda qaychilanib yashashi kerak. Nafaqat o`zini balki tuyg`ularini,ruhiyatini ham muttasil qaychilashi,kerakli shaklga solib turishi kerak. Aslida dunyo,hayot,hatto umrimiz ham Ollohning qaychisida...

Dunyoda ming yillik xarobalar ko`p,

Urushlardan yodgor,sellardan yodgor.

Mozorlar qalashib yotibdi to`p-to`p,

Aslida ular ham cho`ng xarobazor.

Vujudimni teshar yillar shamoli,

Yurak tilka-tilka turfa ozordan.

Bolam,xabar olgin,tutmay zavoli,

Shoir deb atalgan xarobazordan...⁷⁶

Shoirning “O`tinch”nomli ushbu she`rida,mahzunlik bilan birga,rad etib bo`lmaydigan haqiqatlar bor. She`rni o`qigandan tuyg`ularimiz harakatga kelib,soat kabi bong ura boshlaydi.”Ming yillik xarobalar”haqida so`z ketganda,ularning sababchisi ham tabiiy ofatlar ham urushlar ekanligi aytilgan. Ahamiyat bering,shoir ularga nisbatan “yodgor”so`zini qo`llab,bu so`zga teran ma`no yuklaydi. She`rda darajalanish mavjud bo`lib,she`r boshida otilgan o`q dunyo,mozor xarobalaridan o`tib “shoir deb atalgan xarobazor”ga borib tegadi. Bu

⁷⁶ Oripov A. Shoir yuragi. –Toshkent: Ma`naviyat nashriyoti,2003.23-b

o`q shunchaki tegmasdan,alam bilan,fig`on bilan davosi yo`q dard bilan tegadi. Shoir she`rdagi misralar qatida o`z istiroblarini aytib o`tadi. Vujudini teshib xarobazorga aylantirgan”yillar shamoli”ga ishora qiladi. She`rni takror va takror o`qiganingiz sari yangi qirralarini kashf qilaverasiz. Olamni Abdulla Oripov falsafasi bilan anglay boshlaysiz...

Bob bo`yicha xulosalar

1. Abdulla Oripovning dastlab she`riyat maydoniga “uchqun” misol kirib kelganidan qirq yoshigacha bo`lgan ijodini qisqacha ko`rinishda tahlil qildik.
2. Abdulla Oripov ijodi buyuk bir cho`qqi kabi osmonlarga bo`y bergan bir ijoddir. Har qanday tog`ning tepasiga yo`l uning etagidan boshlangani kabi dissertatsiyamning ushbu bobida mana shu ijodiy yuksalish kategoriyasi tahlil qilindi. Ijodkorning 1957-yildan 1983-yilgacha bo`lgan davrdagi she`rlari tahlilga tortildi.
3. Abdulla Oripov she`rlari ruhiyatda sokinlik bilan birga isyon ham qiluvchi falsafiy she`rlardir. Bu shunday falsafaki, oddiygina bir toshni qo`lingizga olsangiz, butun bir to`g` yuragingizda qad ko`taradi. Ushbu bobda mana shunday kichik lirik janrlari tadqiq etildi
4. Ijodkorning kichik lirik janrlardagi ijodi dialektikasi o`rganildi va bu jarayon dalillar bilan isbotlandi.

UMUMIY XULOSA

O`zbek va jahon adabiyotshunosligida olamni idrok etish, uni badiiy qayta voqealantirish, ilmiy-nazariy jihatdan o`rganish va bu boradagi qarashlarni umumlashtirishga hamisha asosiy masala sifatida qaralgan. O`zbek adabiyotshunosligida Abdulla Oripov ijodining borliq, uning yaratuvchisi tabiat va inson, umr, uning mazmuni, zamon hamda makon, olamning siri, vaqt, dunyo va uning mohiyatini anglash jarayoni kabi bir qator qirralari hali to`liq ochib berilmagan. Shuning uchun Abdulla Oripovning ijodida his-tuyg`ular va ularning falsafiy ildizlarini tahlil qilish va o`rganish maqsadga muvofiq. Ushbu dissertatsiyada Abdulla Oripov ijodi misolida bu jarayon ochib berildi. Ijodkorning badiiy tafakkuri, zamon va makon munosabatlarida, tarixiy-ijtimoiy muhitda, inson shaxsiyati va ruhiyati rivojlanishida asosiy manba ekanligini Abdulla Oripov ijodi misolida tadqiq etildi.

Olam va uni idrok etish dialektikasi falsafa va adabiyot nuqtayi nazaridan tadqiq etildi. Bu tushunchslarning inson badiiy tafakkurida yangidan kashf bo`lishi o`rganildi.

Falsafiy va adabiy jarayonning she`riyat bilan aloqadorligi o`rganildi. Abdulla Oripov ijodida his-tuyg`ular, fikrlar, ruhiyat bir-biri bilan eng mukammal darajada uyg`unligi tahlil etildi.

Ijodkor shaxs va uning dunyoqarashi tarixiy muhit bilan aloqadorligi kuztildi. Abdulla Oripovning ijodiy kredosi, atrof voqelikka munosabati, uning etik va estetik ideali ijodi misolida o`rganildi.

Tarixiy muhitda ijodkor shaxsi dunyoqarashining shakllanishi Abdulla Oripov ijodi misolida o`rganildi. Shoirning falsafiy fikrlari aks ettirilgan she`rlari orqali fikrlar mustahkamlandi.

Ijodor she`riyati davrlarga bo`lindi. Sho`ro davridagi she`rlari asosida jamiyat bilan bog`liq munosabatlar va muammolar tahlil qilindi.

Ijodkorning ijodiy kredosi, atrof va voqelikka munosabati, etik va estetik ideali tadqiq etildi

Abdulla Oripov sheʼrlari orqali tuzum ziddiyatlari oʻrganildi va ochib berildi.

Abdulla Oripovning dastlab sheʼriyat maydoniga “uchqun” misol kirib kelganidan qirq yoshigacha boʻlgan ijodini qisqacha koʻrinishda tahlil qildik.

Abdulla Oripov ijodi buyuk bir choʻqqi kabi osmonlarga boʻy bergan bir ijoddir. Har qanday togʻning tepasiga yoʻl uning etagidan boshlangani kabi dissertatsiyamning ushbu bobida mana shu ijodiy yuksalish kategoriyasi tahlil qilindi. Ijodkorning 1957-yildan 1983-yilgacha boʻlgan davrdagi sheʼrlari tahlilga tortildi.

Abdulla Oripov sheʼrlari ruhiyatda sokinlik bilan birga isyon ham qiluvchi falsafiy sheʼrlardir. Bu shunday falsafaki, oddiygina bir toshni qoʻlingizga olsangiz, butun bir toʻgʻ yuragingizda qad koʻtaradi. Ushbu bobda mana shunday kichik lirik janrlari tadqiq etildi

Ijodkorning kichik lirik janrlardagi ijodi dialektikasi oʻrganildi va bu jarayon dalillar bilan isbotlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoyev.Sh.M. Adabiyot va san`at, madaniyatni rivojlantirish- xalqimiz ma`naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. (O`zbekiston ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvdagi ma`ruzasi) / Xalq so`zi.- Toshkent,2017.-4-avgust
2. Mirziyoyev.Sh. M. O`zbek mumtoz va zamonaviy adabiyoti xalqaro miqyosda o`rganish va targ`ib qilishning dolzarb masalalari. Xalqaro konfrensiyaga tabrigi //xalq so`zi online.-Toshkent: 2018. 7-avgust.
3. Mirziyoyev.Sh. M. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. –Toshkent: O`zbekiston,2017.-592-b
4. Adabiyotshunoslik lug`ati.(Tuz.: D. Quronov, Z.Mamajonova, M.Sheraliyeva).-Toshkent:Akademnashr,2013.408-b
5. G`aniyev I,Afoqova N. Ko`hna torning yangi navolari.- Toshkent,O`zbekiston adabiyoti va san`ati.-2006,17-mart.
6. G`aniyev I, Afoqovqa N. Abdulla Orif falsafasi.-Toshkent,Muharrir, 2021.- 308-b.
7. G`aniyev I,Afoqovqa N. Ozod so`z falsafasi. –Toshkent, Fan,2007. 151-b
8. D.Quronov.Adabiyot nazariyasi.-Toshkent:Akademnashr.2018.
9. Q.Yo`ldoshev.Yoniq so`z.-Toshkent:Yangi asr avlodi,2006.
10. B.Karim.Ruhiyat alifbosi.-Toshkent:G`afur G`ulom,2017.
11. U.Normatov.Ijod sehri.-Toshkent.:Sharq,2007.
12. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 1 jild.- Toshkent:G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti,2000. 432-b
13. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 2 jild.- Toshkent:G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti,2000. 384-b
14. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 3 jild.- Toshkent:G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti,2000. 384-b

15. Oripov A. Tanlangan asarlar. 4 jildlik. 4 jild.- Toshkent:G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti,2000. 384-b
16. Oripov A. Tanlangan asarlar. 7-jild.-Toshkent: G`.G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2013.-300 b.
17. Oripov A. Tanlangan asarlar. 8-jild.-Toshkent: G`.G`ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi,2016.-324 b.
18. Oripov A. Dunyo.-Toshkent: Adabiyot va san`at nashriyoti,1995.-56 b
19. Oripov A. Mehr:to`rtliklar.-Toshkent:Sharq,2004.-80 b
20. Oripov A. Hikmat sadolari. –Toshkent:Fan,1993.-104 b.
21. Oripov A. Adolat ko`zgusi.- Toshkent: Adolat,2005.-400 b
22. Oripov A. Yillar armoni.- Toshkent: G`.G`ulom nomidagi adabiyot va san`at nashriyoti,1987. 592-b
23. Oripov A. Ko`ztumor.- Toshkent:Ma`naviyat,2005.-120 b.
24. Oripov A. Menga xushxabar ayt.-Toshkent: Ma`naviyat,2009.-128 b
25. Oripov A. Mitti yulduz.-Toshkent: Ma`naviyat,2002.-40-b.
26. Oripov A. Saylanma.- Toshkent: Sharq,1996.-464 b
27. Oripov A. Hayrat.-Toshkent: Adabiyot va san`at nashriyoti,1974.-80 b
28. Oripov A. shoir yuragi.-Toshkent: Ma`naviyat,2003.-112 b
29. Oripov A. Yuzma-yuz.- Toshkent: Adabiyot va san`at nashriyoti,1978.
30. Oripov A. Yurtim shamoli.-Toshkent: Yosh gvardiya,1976.-224 b
31. Oripov A. Talosh pallasi.-Toshkent:Ma`naviyat,2007.-104 b

32. Rayxonova M. Abdulla Oripov she`riyatida olamni idrok etish va badiiy voqelantirish tadriji Filol. fanlari bo`yicha falsafa doktori..diss. –Qarshi 2021.- 141 b

33. O`sarova L. Abdulla Oripov ijodida milliy ruh ifodasi. Filol.fanlari bo`yicha falsafa doktori..diss.avtoref.-Toshkent 2020.-24 b

34. Ashurova G. Abdulla Oripov she`riyatida an`ana va badiiy mahorat(obraz,g`oya va tasvir)- Filol.fanlari bo`yicha falsafa doktori..diss.avtoref.- Toshkent,2008.- 26 b

35 .Kh.-davron.uz

36.uzjournals.edu.uz

37.Www.ziyouz.com

